

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB Abdulla Qodiriy ijodini o‘rganishda innovatsion texnologiyalarning samarasi.....	7
1.1 “O‘tkan kunlar” romanida Yusufbek hoji va Otabek obrazlarida mujassamlashgan vatanparvarlik g‘oyasi, ota va o‘g‘il munosabatini ochishda bahs-munozara usuli.....	15
1.2 Asardagi tarixiy shaxs va tarixiy voqelik haqida o‘quvchining mustaqil fikrini o‘stirish usullari.....	21
II BOB. Asar tahlilida interfaol metodlardan foydalanish usullari.....	30
2.1 Asar tahlilida kino-videomateriallardan foydalanish.....	32
2.2 Asarda Zaynab va Kumush fojeasi tahlilida “Keys-stadi”, “Oqlovchi va Qoralovchi” metodlaridan foydalanish usullari.....	43
III BOB. Ishning amalyotga tatbiqi.....	51
3.1 Ta’lim bosqichlarida masalaning berilishi va o‘qitilishi.....	51
3.2 Ochiq dars ishlanmasi.....	53
Xulosa.....	63
O‘zbekcha–inglizcha so‘zlar lug‘ati.....	65
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	67

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi mustaqil O‘zbekistonda ilm-fan, ta’lim-tarbiyaga katta e’tibor berilmoqda. Ta’bir joiz bo‘lsa, mamlakatimizning dolzarb masalalaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Shunday ekan, ta’lim-tarbiyaga ahamiyat bermasdan turib, taraqqiyot haqida gapirishning o‘ziyoq quruq safsatadan boshqa narsa bo‘lmaydi. Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning ta’lim-tarbiyaga oid fikrlari ahamiyatga molik: “Ma’lumki, ota bobolarimiz qadimdan bebaho boyluk bo‘lmish ilm-u ma’rifat, ta’lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilgan”¹.

Hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotimizda ulkan o‘zgarish va tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda har bir shaxs buyuk o‘tmishimizni yaxshi bilgan holda kelajagimiz ravnaqi uchun eltadigan eng oqilona yo‘llardan borishi kerak. Bunday oqilona yo‘ldan davlatimiz birinchi prezidenti I.A.Karimov ko‘rsatib o‘tganlaridek, “Sarchashmalari buyuk ajdodlarimizning tafakkuri va muddaolaridan boshlanadigan xalqimizning ma’naviy qadryatlari iqtisodiy o‘zgarishlarning mustahkam poydevori bo‘lib xizmat qiladi”². Xalqimizning ma’naviy qadryatlarida san’at, ayniqsa, adabiyotning o‘rni, uning xalq hayoti uchun naqadar zarur ekanligi hech birimizga sir emas. Prezidentimiz shuni inobatga olgan holda “Adabiyotga e’tibor –ma’naviyatga, kelajakka e’tibor. Adabiyot masalasi - bu ma’naviy masalalardir”³, - deydi. Darhaqiqat, adabiyot Cho‘lpon ta’biri bilan aytganda, “kirlangan ko‘ngillarni tozalovchi, poklovchi bir buloq suvi kabidir”.

Adabiyot shunday kuchki, u orqali inson tarbiyalanadi, olis ko‘ngillar yaqinlashadi, qalbimiz, aqlu shuurimiz tozalanib, poklanib boradi. Bizga ma’lumki, sharqda adabiyot-adab hisoblanadi. Qo‘liga qalam olgan odam birovga bir ibrat beradigan, nur sohadigan, ko‘ngliga nur beradigan bir narsa

¹ Karimov I.A Yuksak ma’navyat – yengilmas kuch. T.: Ma’navyat, 2013. –B. 60-61.

² Каримов И.А Маънавий юксалиш йулида. Т.: Узбекистон, 1998.-В. 49.

³ Каримов И.А Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. Т.: Узбекистон 2009. –В. 23.

yoʻzgisi keladi, yoʻzmogʻ ham kerak deb oʻylaymiz. Ana shu niyyat juda buyuk hisoblangan. A.Qodiriy ijodida adab masalasi soʻzning qudrati borasida ketar ekan, 15 yil avvalgi “Adabiyot va sanʼat gazetasida” gazetasida Xayriddin Sultonovning “Andisha” nomli maqolasi haqida gapirsak, bu maqola koʻp vaqtgacha tillarda yurdi, hozirgacha bu maqolani qodiriyshunoslar koʻp eslashadi. A.Qodiriy asarlarida, xususan, “Oʻtkan kunlar”da andisha tushunchasini real bir amaliy koʻrinishlarda aks etishi haqida ayrim mulohazalarni bayon etgan muallif. Aytishimiz mumkinki, andisha ham oʻzbekona milliy odobimizning eng muhim bir tushunchalaridan biri, A.Qodiriy asarlarida faol aks etgan. Ayni paytda Otabekning, ayniqsa, Yusufbek hojining andishasi ularning mana shu tushuncha atrofida qiladigan hatti- harakatlarini bir koʻz oldimizga keltiraylik. Yusufbek hoji biror bir fikr aytmasin, biror bir ishga jalb qilmasin hammasini ortida uning andishasi turadi, maʼlum mulohazasi turadi.

Yozuvchi shaxsiyati, dunyoqarashi, did-farosati, xudo bergan isteʼdodi va mahorati singari qator omillar badiiy asarda oʻz ifodasini topishga shubha yoʻq. Shu maʼnoda demoqchimizkim, Abdulla Qodiriy iymoneʼtiqodli, pokiza tabiat, haqiqatgoʻy bir inson edi. Bu fazilat-xislatlar uning romanlariga koʻchgan, albatta. Oʻzbek adabiyoti, umuman, jahon adabiyoti tarixi kuzatilganda bir haqiqat ayon boʻladi: yozuvchi-shoir asosan oz dunyosini, oʻz his-tuygʻularini kitobxonga maʼnaviy ozuqa-mulk sifatida taqdim etadi. Abdulla Qodiriy romanlarining umrboqiylik asoslarini eng avvalo adib shaxsiyatidan, dunyoqarashini shakllantirgan zamindan, adabiyotdagi adabiy mavzularning maromiga yetkazib tasvirlashidan, soʻzning ruhiyatiga taʼsiridan va shu singari koʻzga koʻrinib-koʻrinmay turgan hamda hisga taʼsir etib- etmay turgan qator unsurlardan izlash kerak.

Mavzuning oʻrganilish tarixi. A. Aliyev kitoblarida ham A. Qodiriy ijodiga yuksak baho beradi, uning XX asr oʻzbek adabiyotida realistlik romanchilikni boshlab berganini taʼkidlaydi. Adib ijodini tahlil va talqin etishda

munaqqid uning adabiy-estetik qarashlaridagi yetakchi tamoyillarga, hayotiylik, xaqqoniylik, milliylik tildan foydalanish mahorati singari mezonlariga urgʻu beradi. Biroq ayni damda U. Normatov kabi Qodiriy oktyabr inqilobini toʻgʻri qabul qildi va 20-yillari ijodi bilan shoʻro davriga xizmat qildi, degan fikrni ilgari suradi: «U oktyabr inqilobi gʻalabalariga ishondi va uni har tomonlama himoya qilish va saqlab qolishda qatnashdi. Abdulla Qodiriy shoʻro hokimiyatining dastlabki yillarida qizgʻin jurnalistik faoliyati bilan barobar oʻzbek adabiyotidagi birinchi roman - “Oʻtkan kunlar”ni yaratdi (1919-20). Romandan boblar 1922-yil. “Inqilob” jurnalida eʼlon etildi. 1924-26- yillari har bir boʻlimi alohida-alohida kitob holida bosildi. “Oʻtkan kunlar” yaratilgan davr oʻzbek xalqi uchun millatning erki, ozodligi, mustaqilligi, jahondagi oʻrni masalasi hayot-mamot ahamiyatga molik edi. Abdulla Qodiriy mintaqamiz taraqqiyparvar ziyolilari safida turib ona yurtning, millatning taqdiri ustida astoydil qaygʻurdi, oʻzicha najot yoʻlini izladi. “Oʻtkan kunlar” xalqimizning oʻtkan kunlari... Bu asarni sevib oʻqimagan, asar asosida suratga olingan filmi koʻrib zavqlanmagan adabiyot shaydosi boʻlmasa kerak... “Oʻtkan kunlar” garchi muallif yozganidek, yangi zamon roʻmonchiligʻi bilan tanishish yoʻlida kichkina bir tajriba, yana toʻgʻrisi bir xavas boʻlsa-da, hali shu kunga qadar oʻzbek adabiyotida unga yetadigan asar yaratilmadi Darvoqe, D.Quronov va X.Polvonovalarning “Sharq yulduzi” jurnali 2007-yil 1-sonida “Oʻtkan kunlar” romani matniy tadqiqi toʻgʻrisida bir maqolasi bosildi. Unda “Inqilob” jurnali bir – ikki marta tilga olinadi. Biroq kengroq qiyoslar, batafsilroq maʼlumot berilmaydi. Ikkinchidan maqolada: “Romanning “Inqilob”dagi nashri bilan, kitob boʻlib chiqishi orasida besh yillik masaofa bor – bu vaqt mobaynida adibning mahorati oʻsgani shubhasiz”, degan bir taxminiy gap ham “Oʻtkan kunlar”ning jurnaldagi parchasini tekshirishga zarurat tugʻdiradi.

Romaning nashriga oid yana bir dalil shuki, “Chaqimchiliq” fasli 1924-yili shoir Choʻlpon tartib bergan “Adabiyot parchalari” toʻplamining 15-21-sahifalarida chop etiladi. Mashhur sharqshunos E..Bertels “Oʻtkan kunlar” munosabati bilan “Evropa romani, ingliz romani, rus romanlari bilan bir

qatorida o‘zbek romanining yaratilganligi” ni yozgan edi. Ulkan qozoq yozuvchisi, o‘zbek adabiyotining ko‘zga ko‘ringan namoyondasi Muxtor Avezov fikricha, “O‘tkan kunlar” romani bilan Abdulla Qodiriy 20-yillarda “Sharqning eng ulkan yozuvchisi bo‘lib qolgan edi”. Abdulla Qodiriy ongli ravishda novatorlik yo‘li bilan bordi va izlanishlari samarali bo‘ldi. U o‘zbek romanchilik maktabini yaratdi.

Tadqiqot ishining maqsadi. Mazkur bitiruv malakaviy ishida Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida munozarali dars usulida o‘quvchilarga ta’lim berish, asarni tahlil qilishni o‘rgatish.

Tadqiqot ishining vazifalari:

- Talim bosqichlarida Abdulla Qodiriy ijodini o‘rganishda innovatsion texnologiyalarning o‘rni;
- “O‘tkan kunlar” romanida Yusufbek hoji va Otabek obrazlarida mujassamlashgan vatanparvarlik g‘oyasi va ota va o‘g‘il munosabatini ochishda bahs-munozara olib borish;
- Asardagi tarixiy shaxs va tarixiy voqelik haqida o‘quvchining mustaqil fikrini o‘stirish;
- Asar tahlilida interfaol metodlardan foydalanish;
- Asar tahlilida kino-videomateriallardan foydalanish;

Tadqiqot ishining ilmiy yangiligi. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani bo‘yicha bahs – munozara usulining tatbiqi. Bizning nazarimizda shu kunlargaacha o‘rganilgan adabiy metodlar ichida “bahs-munozara” usuli o‘quvchilarning mustaqil fikrini o‘stirishda alohida mavqega ega. Ishning ilmiy yangiligi sifatida shu usul orqali yangi natijalarni qo‘lga kiritish.

Tadqiqot ishining obykti. BMIning asosiy tadqiqot manbai sifatida G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani olindi.

Abdulla Qodiriy qalamiga mansub “O‘tkan kunlar” romani bo‘yicha munozarali dars usuluni o‘quvchilarga o‘rgatish, asar to‘g‘risidagi yozilgan maqolalarni tahlil qilish va uni o‘rgangan olimlarning fikri.

Tadqiqotning metodologik asoslari. Mazkur bitiruv malakaviy ishimizning metodologik asosini hukumatimiz tomonidan chiqarilgan qarorlari, adabiy ta’limni rivojlantirish bo‘yicha birinchi prezidentimiz Islom Karimovning farmoyishlari, keyingi paytlarda prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Kitobxonlik madaniyatini oshirish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida” farmoyishlari tashkil etadi. Ushbu farmoyishda yoshlar orasida savodxonlikni oshirish, ta’lim muassasalarida o‘quv adabiyotlarini yaratish va o‘quvchilarga yetkazish, bundan tashqari, yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan adabiyotlarni chop etish haqida gap boradi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Mazkur BMIdan ko‘zlangan maqsad, o‘zbek adabiyotidagi durdona asarlardan biri bo‘lmish “O‘tkan kunlar romani” bo‘yicha mulohaza yuritish hamda ta’lim bosqichlarida ushbu asarni o‘qitishning eng ilgor va samarali usullarini aniqlash. Biz ishlab chiqadigan nazariy va amaliy o‘qitish usullaridan ta’lim jarayonlarida samarali foydalanish.

Tadqiqot ishining tuzilishi. Tadqiqot kirish, 3 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tarkib topgan.

I BOB. Abdulla Qodiriy ijodini o‘rganishda innovatsion texnologiyalarning samarasi

1.1 “O‘tkan kunlar” romanida Yusufbek hoji va Otabek obrazlarida mujassamlashgan vatanparvarlik g‘oyasi, ota va o‘g‘il munosabatini ochishda bahs-munozara usuli

Abdulla Qodiriy 1894-yil 10-aprelda Toshkent shahrida bog‘bon oilasida tug‘ildi.” Boshida boy oilada tug‘ldimi yoki kambag‘al oiladami, albatta, bilmadim,- deb yozadi . Abdulla Qodiriy–Ammo yoshim 7-8 ga yetgach qornim oshga to‘mag‘onidan, ustum tuzuroq kiyim ko‘rmaganidan aniq bildimki, besh joning tomog‘i faqat 80 yoshlik bir chol otamning mehnatidan, 1300 sarjin bog‘ning yozda yetishtirib beradigan hosildan kelar ekan. Agar bahor yomon kelib, bog‘ mevalari ofatga uchrab qolsa, biz ham ochliqqa duch kelib, qishi bilan jovrashib chiqar ekanmiz”.

Qodiriy bolaligidayoq zehni o‘tkir o‘qish-o‘rganishga mehr-ishtiyoqi baland bo‘lgan. Ammo oiladagi muhtojlik tufayli bir oz kechikib, 9 –10 yoshlarida maktabga boradi. Ikki-uch yil eski usulda o‘qigach, on ikki yoshida uni oiladagi nihoyatda qashshoqlik vajidan bir boyga xizmatchilikka beradilar. Xojayin savdogar kishi bo‘lib o‘rischa yozuv-chizuvni biladigan odamga muhtoj edi. Abdullaning zehni, o‘qishga ishtiyoqini sezgan savdogar uni rus-tuzem maktabiga yuboradi. Maktabni 1912-yili muvoffaqiyat bilan tugatadi. Ikki yil o‘tgach, Abdulla Toshkentdagi Abulqosim madrasasiga o‘qishga kirdi. Madrasadagi qisqa ta‘lim uning islom ilmi, arab va fors tillarini egallashi, keyinchalik bu sohalarni mustaqil o‘zlashtirishi uchun zamin hozirladi.

Abdulla 1912- yili Rasulmuhammadboy otliq savdogarga prikazchilik (kotib) bo‘lib ishga kiradi. 1914 - yili boyning katta qizi Rahbaroyga uylanadi. Abdullaning bundan buyongi ham totuv, ham sertashvish hayoti, faoliyati umr yo‘ldoshi Rahbaroy u keyinchalik inom etgan ikki o‘g‘il, ikki qiz Nafisa, Habibulla, Adiba, Ma’sudlar bilan kechdi. Abdulla ijodiy faoliyatining

boshlanishi ham o'sha davrga to'g'ri keladi. Hamisha xalq orasida bo'lgan, uning ehtiyojlarini, og'riqli joylarini, kayfiyat-u istaklarini bilgan yozuvchi o'zining haqqoniy bitilgan asarlaridagi dilbar obrazlar orqali o'zini mansub bo'lgan xalqning turmushini yaxshilash, ma'naviyatini yuksaltirish, milliy g'ururini intiladi.

Uning hikoyalari chiqqan jurnallar, gazetalar siyohi qurumay qo'lma-qo'l bo'lib ketadi. Felyetonlari bosilib turgan "Mushtum" jurnali hamisha talash bo'lardi. Romanlarini o'qish uchun navbat kutib turganlarning sanog'iga yetib bo'lmas "O'tkan kunlar" romanini yod biladigan kitobxonlar bor edi. „ O'tkan kunlar“ (1919-yilda yozila boshlangan, 1922-yilda „Inqilob“ jurnalida chop etilgan, 1925-yilda 3 kitob tarzida, 1926-yilda yaxlit asar bo'lib chiqqan) – o'zbek adabiyotidagi birinchi roman. O'zbek o'quvchisi bayramdek kutib oldi, lekin yozuvchi M.Sheverdin uni zararli asar deb baholadi, tanqidchi Sotti Husayn roman mohiyatini buzib ko'rsatadi. Chunki adib inson ruhiyatining sirli va nozik jihatlarini chuqur, ta'sirli va haqqoniy aks ettirardi. Uning asarlari yolg'iz haqqoniylikdan tashqari go'zal ifoda uslubi bilan ham ajralib yurardi. O'zbek adabiy tilining hozirgi shaklini bunyod etishga hech bir yozuvchi Abdulla Qodiriy kabi muhim o'rin tutmagan. Haq gapni hayiqmay aytayotgan, millatiga o'zini tanitayotgan, uning g'ururini uyg'otayotgan yozuvchi o'lkamizni egallab olgan bosqinchlar va ularning yugurdaklariga yoqmasligi tayin edi. Shu bois A.Qodiriyga ko'p bor chovut solishdi. 1926- yildayoq "Sho'ro rahbarlarini matbuot orqali obro'sizlantirdi" degan uydurma ayb qo'yib adibni qamoqqa hukm qilishdi. Lekin aybining uydurmaliğini, guvohlarning soxtaligi shu darajada ayon ediki, adibni qamoqqa tiqishga jur'at eta olishmadi. Bu zamon so'zlari nazarida yozuvchini o'ziga xos "Ogohlantirish" edi. Adib bu ogohlantirishdan to'g'ri xolasa chiqarmadi ya'ni haqiqatga hiyonat qilmadi.

"O'tkan kunlar" , "Mehrobdan chayon" , "Obid ketmon" singari roman va qissalari bilan nafaqat O'zbekiston, balki butun Turkiston xalqlari ma'naviy ravnaqiga hissa qo'shgan adibni 1937-yilning 31-dekabrda ikkinchi bor olib ketishdi. Bu davrda Stalin boshqarib turgan sotsialistik qatag'on mashinasi tinim

bilmay ishlar va bu mashinaning yaxshi yurmog`i uchun yangidan –yangi qurbonlar zarur edi. Adolatning ko‘chasidan ham o‘tmagan hukumatning o‘ziga yarasha sudlari 1938-yilning 5 oktabrida XX asr o‘zbek naslining eng yirik vakilligi asrimizdagi o‘zbeklarning eng fidoyisini o‘limga hukm qildi. Shu tariqa adabiyotimiz bo‘stoning yana bir chinori sanat jallodlari tomonidan qulatildi. Abdulla Qodiriy ijodini o‘rganishda Qodiriyshunos olim Bahodir Karimovning «XX asr o‘zbek adabiyotshunosligida talqin muammosi» (Qodiriyshunoslik misolida) mavzusidagi doktorlik ishi va shu ilmiy tadqiqot asos bo‘lgan «Abdulla Qodiriy» nomli monografiyasida adib ijodining o‘zbek va xorij adabiyotshunosligi hamda tanqidchiligida qanday talqin etilganligi har tomonlama ochib berilgan. Tadqiqotchi to‘g‘ri ta’kidlaganidek, «XX asr o‘zbek adabiyotshunosligida, umuman, sobiq ittifoqdagi millatlar adabiyotshunosligida badiiy asar talqini ko‘pincha davr siyosatiga muvofiq bo‘lganligi ko‘rinadi. Shu ma’noda, adabiyot va siyosat juftligi filologiya ilmida har vaqt yonma-yon keldi».

Binobarin, istiqlol davriga kelib, Qodiriy ijodini tahlil qilishda qanday metodologik tamoyillarga tayanila boshlandi, adib ijodiy mahoratining qaysi qirralariga e’tibor qaratildi, degan masala juda muhimdir. Shu nuqtai nazardan keyingi yillarda chop etilgan maqolalar, tadqiqotlar va bahs - munozaralarni ko‘zdan kechirsak, ularda yozuvchi biografiyasining yangi qirralarini ochishdan tashqari, adib poetik olamining talqinida ham yangicha mezonlarga qo‘l urilganligini kuzatamiz. Avvalo shuni ta’kidlash kerakki, istiqlol davri tanqidchiligida Qodiriy ijodiy mahoratiga bag‘ishlangan bir qancha maqola, tadqiqot yuzaga keldi. Ularning ayrimlari monografik xarakterda bo‘lib, yozuvchi hayoti va ijodini yaxlit holda o‘rganishga bag‘ishlangan ocherklar va monografiyalar bo‘lsa, ayrimlari ijodkor poetik olamining muayyan qirralarini yoritgan tadqiqotlardir. Jumladan, M. Qo‘shjonovning «O‘zbekning o‘zligi», I.G‘anievning «Ruhiy go‘zallikning qismati», A.Murodxonovning «Iste’dod jozibasi», H.Lutfiddinovaning «Gullarning ra’nosi», «Abdulla Qodiriyning badiiy dunyosi», B.Karimning «Qodiriy qadri», «Abdulla Qodiriy», «Adabiyot badiiyat abadiyat» kabi asarlarda adib poetik olami tadqiq etilsa, U. Normatovning

«Qodiriy bog‘i», A.Aliyevning «Istiqlol va adabiy meros» kitobidagi «Abdulla Qodiriy» ocherki, S.Mirvaliyevning «Abdulla Qodiriy» kabi tadqiqotlarida uning hayoti va ijodi batafsil yoritilgan. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, istiqlol yillarida Qodiriy ijodini yangicha tafakkur tarzi, yangicha metodologik tamoyillar asosida talqin etish sho‘ro davri qodiriyshunosligi shakllanishiga katta hissa qo‘shgan atoqli munaqqidlar faoliyatiga ham xos xususiyatdir. Ular mustaqillikning ilk yillaridayoq o‘z dunyoqarashlarini qayta qura olgan, avvalgi ayrim mafkuraviy qarashlaridan voz kecha olgan olimlardir. Ularning tadqiqotlarida sho‘ro davridagi Qodiriyshunoslikka xos siyosiy-mafkuraviy yondashuvdan batamom voz kechishga intilishni ham, yozuvchi poetik olamini badiiylik, milliy o‘zlikni anglash va qadriyatlar, xalq va vatan manfaatlari bilan bog‘liq holda yondashishga urinishni ham kuzatish mumkin. Bu esa, istiqlol davri Qodiriyshunosligi kontseptsiyasining yetakchi xususiyatlaridandir. M. Qo‘shjonov, A.Aliyev, S.Mirvaliev, U. Normatov, B. Karimov, I.G‘aniev va boshqa munaqqidlarning kuzatishlarida shu xususiyat singdirilganligiga amin bo‘lamiz.

Albatta, Qodiriy shaxsi va ijodiga tahliliga doir tadqiqot va maqolalarni to‘la-to‘kis analiz qilish bizning vazifamizga kirmaydi. Qolaversa, B.Karimov tadqiqotlarida bu masala mufassal tadqiq etilgan. Biz bu o‘rinda istiqlol davri tanqidchiligida qodiriyshunoslik qaysi metodologik tamoyillarga ko‘ra rivojlandi degan masalaga ko‘proq e‘tiborni qaratdik. Ta’kidlash joizki, istiqlol davrida qodiriyshunoslik, fitratshunoslik va cho‘lponshunoslikning mukammal namunalari, sho‘ro davridagidan farqli ravishda, ijtimoiy tahlilga emas, balki estetik talqinga ko‘proq e‘tibor qaratdi. Ular ijodiga yondashishda badiiy-estetik qonuniyatlarga tayanish yetakchilik qila boshladi. Muayyan asarda ijodkorning mahorati, avvalo, ruhiyat tasvirlari qay darajada haqqoniy aks etgan, degan masala ustuvorlik qildi.

Ta’kidlash zarurki, adabiy tanqidning milliy uyg‘onish davri adabiyoti namoyandalari ijodiga bag‘ishlangan kuzatishlarida aksiologik yondashuv yetakchilik qila boshladi. Ya’ni bu ijodkorlarning ijodiy merosini milliy qadriyatlarimizning go‘zal namunalari sifatida e‘zozlash, asrab-avaylab xalqqa

yetakzish ustuvor vazifaga aylandi. Xususan, M.Qo‘shjonovning «O‘zbekning o‘zligi» kitobi ana shu xususiyati bilan qimmatlidir. Unda Qodiriy romanlari ezgu qadriyatlar, o‘zbekona urf-odatlar va milliy ruhiyat nuqtai nazaridan talqin etiladi. Munaqqidning yutug‘i shundki, u asar qahramonlari Otabek va Kumush qalbida kechgan tug‘yonlarni, ruhiy holatlarni roman syujeti va kompozitsiyasidan ajratmay, yaxlit holda tahlil qilishga erisha olgan. Yetakchi qahramonlar qalb kechinmalarining ishonarli tahlillarida munaqqidning yozuvchi mahoratini izchil kashf etib borganiga guvoh bo‘lamiz. Kitobda estetik tahlil ustuvor, biroq ijtimoiy talqin ham e‘tibordan soqit etilmagan. Jumladan, asarning g‘oyaviy motivini ochishda, Otabek dunyoqarashining yetakchi xususiyatlarini ta’kidlashda, romanga singdirilgan millat, vatan taqdiri bilan bog‘liq konsepsiyani dalillashda munaqqid ijtimoiy talqinga urg‘u bergan. Bu tabiiy hol albatta. Chunki badiiy asar talqini «sof estetik tahlil»dan iborat bo‘lib qolmasligi lozim. Badiiy asarda, ayniqsa, nasriy asarlarda, xususan, yirik janr hisoblanmish romanda qahramon bevosita tashqi muhit, ijtimoiy borliq bilan muayyan tarzda munosabatga kirishadi. Demakki, asar tahlilida munaqqid ham ijtimoiy hayot haqida fikrlashga burchli. Biroq ijtimoiy talqin ilmiy tahlilning o‘zagiga aylanmagan, M. Qo‘shjonovning «O‘zbekning o‘zligi» asari Qodiriy ijodiga milliy qadriyatlar nuqtayi nazaridan yondashishning go‘zal namunalaridan biridir. Munaqqid talqinida yozuvchining poetik mahorati har tomonlama dalillab ko‘rsatilganini ta’kidlash zarur. Ayni chog‘da, romanga sho‘ro davriga xos mafkuraviy mezonlar bilan yondashilgan o‘rinlar ham uchraydi. Bu, ayniqsa, Otabek bilan Kumushning fojeasiga sabab bo‘lgan omillarni belgilashda ko‘zga tashlanadi. Munaqqid Otabek bilan Kumush fojeasiga zulmkor ijtimoiy muhit, eski urf-odatlar, ota-ona orzusi kabilarni asosiy sabab sifatida ko‘rsatadi. Vaholanki, Otabek bilan Kumush fojeasining sabablarini faqat tashqi muhitdan axtarish unchalik to‘g‘ri emas. Aslida, bular ikkinchi, uchinchi darajali sabablardir. Roman qahramonlari fojeasining bosh omili esa, Otabek bilan Kumushning qalbi, ruhiyati, ma’naviy olamining o‘ziga xosligidadir. Zero, Otabek va Kumushning qalblari shunday javohirki, unda Zaynablarga o‘rin yo‘q. Tasavvur qilaylik, Otabek ham o‘z zamonasining farzandi. O‘sha zamonda

savdogarlar yurtlarni kezib yurishgan. Otabekka o'xshagan savdo ahli nafaqat Marg'ilon yoxud Qo'qon, balki Rossiya, Sharqiy Turkiston, qolaversa, Afg'oniston, Eron, arab davlatlarida tijorat bilan mashg'ul bo'lishib, bir ketishda oylab, yillab, hatto o'zga ellarda o'n yillab yurishgan. (A. Fitratning otasi Qashqarda 15 yil turgani haqidagi faktni eslang -Q.Q.) Demak, o'sha davr hayoti savdogar ahlining, islom aqidalariga ko'ra, boshqa yurt shaharlarida ham oilali bo'lishlarini taqazo etgan. Bu hol tabiiy bo'lib, Otabek va Kumushning zamondoshlarini hech bir qiynoqqa solmagan. Shu nuqtai nazardan, Otabekning Toshkentda Zaynabga uylantirilishi an'ana va urf-odatlariga xos hol bo'lib, bunda na «majburiyat», na «zulmkor muhit» va na «ota-ona orzusi»ning aybi bor. Fojianing sababi esa Otabek bilan Kumush qalblarining sevgi bilan limmolimligiki, ular o'z zamonasining tartib-qoidalari, tamoyillarini singdira olishmadi. Binobarin, Otabek bilan Kumush fojeasi haqida fikr yuritganda asosiy e'tiborni ular qalbining o'ziga xosligiga qaratish lozim bo'ladi.


Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani qanchalik novatorlik xarakteriga ega bo'lmasin, milliy adabiyotning asriy an'alaridan ajrab qolmagan, ularning eng rivojlantirish ruhida yozilgan. Abdulla Qodiriy o'z romanini Sharq xalqlari tomonidan necha asarlar davomida sevib kelingan "Tohir va Zuhra", "Farhod va Shirin" larga o'xshatgani bejiz emas. Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar" romanini yozish bilan o'zbek romanchilik maktabiga asos soldi. "O'tkan kunlar" yaratilgan davr o'zbek xalqi uchun millatning erki, ozodligi, mustaqilligi, jahondagi o'rni masalasi hayot-mamot ahamyatiga molik edi. Abdulla Qodiriy o'z davrining ilg'or bir ziyolisi sifatida Vatan va millat taqdiri ustida astoydil qayg'urdi, o'zicha najot yo'lini izladi. Zamon talato'plari adib qalbini iztirobga soldi. "O'tkan kunlar" romani orqali xalqning milliy ongini uyg'otmoqchi bo'ldi, "tariximizning eng kir, qora kunlari" – yurtni mustamlaka balosiga giriftor etgan keying noahil "xon zamonlari" to'g'risida so'z ochib, bu ayanchli haqiqatdan xalqqa saboq bermoqchi bo'ldi. Roman tarixiy faktlarni aytib berishdan voz kechadi va voqealar romanning mazmunini tashkil yetuvchi xususiy voqea munosabati bilan tilga oladi, ammo shu shaxsiy voqea orqali bizning ko'z

oldimizda tarixiy voqealarning ichki faktlarini, ularning astarini ochib beradi... Mamlakat hayoti va asarning koloriti, ularning odatlari va xalqlari tarixiy romanning har bir xususiyatida (garchi bu uning maqsadi bo'lmasada) yaqqol ko'rinib turadi. Shuning uchun ham tarixiy roman-fan sifatida tarixning san'at bilan qo'shib ketgan nuqtasidir, tarixning qo'shimchasidir; go'yoki uning boshqa tomonidir.

Abdulla Qodiriy o'z tasvirida tarixiy faktlarga, hatto ayrim shaxslar Xudoyorxon, Musulmonqul, Azizbek va boshqalarni tasvirlashga suyangan holda, davr tavsifi, «jamiyat hayotining poyetik analizi» ni romanning markaziy qahramonlari Otabek va Kumushning taqdirini tasvirlash orqali beradi. Otabek va unga xayrixoh kishilarning taqdiri juda murakkab, ba'zan fojialidir. Bu ayniqsa romanning bosh qahramonlari taqdiri uchun xarakterlidir. Otabek, uning otasi Yusufbek hoji, Kumushbibi va boshqalarning taqdiri orqali o'quvchini o'z davrining deyarli hamma ijtimoiy tabaqalari hayotiga olib kiradi.

Xon Xudoyorxondan boshlab qul Hasanligacha jamiyatning turli tabaqalari vakillarining hayoti, bu davrda hukmdorlar va tobelar, xotinlar bilan yerkaklar, yoshlar bilan keksalar orasidagi munosabatlar, kishilarning turmushi va ularning bir-biriga bo'lgan munosabatlari asar davomida lavhalarda gavdalanadi.

“Klaster” metodidan foydalanib, Abdulla Qodiriy hayoti va ijodi haqida yozilgan asarlarni belgilang



Abdulla Qodiriy xarakterlarning ishonchli va yorqin tasvirlanishiga alohida e'tibor beradi. Boylar va savdogarlar muhitidan Otabek, YUusufbek Hoji, Qutidor, Ziyo Shoxchi, Homid va boshqalar; feodallar muhitidan Azizbek, Musulmonqul, O'tabboq qushbegi va boshqalar; mehnatkashlar muhitidan (ommaning tasviridan tashqari) Usta Olim, Usta Parpi va Hasanali hamda boshqalarning xarakterlari romanda juda ustalik bilan yaratilgan. Masalan, Yusufbek hoji obrazi jahon adabiyotida bunday obrazni ikkinchi marotaba topish juda qiyin. Yusufbek hoji milliylikni, islom ma'rifatini o'zida mujassam qilgan sharq otasining tirik obrazi hisoblanadi, ota va o'g'il suhbatlari asarda mohirona tasvirlangan bunday obrazlarni boshqa asarlarda uchratmaymiz.

Otabek va Yusufbek hoji obrazlarida mujassamlashgan vatanparvarlik g'oyasini ochishda baxs-munozara metodidan foydalanish


“ Bahs- munozara” metodi

Biror mavzu bo'yicha ta'lim oluvchilar bilan o'zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o'tkaziladigan o'qitish metodidir. Har qanday mavzu va muammolar mavjud bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilishni nazarda tutilgan holda ushbu metod qo'llaniladi. Bahs-munozarani boshqarib borish vazifasini ta'lim oluvchilarning biriga topshirishi yoki ta'lim beruvchining o'zi olib borishi mumkin. Bahs-munozarani erkin holda olib borish har bir ta'lim oluvchining munozaraga jalb etishga harakat qilish lozim. Ushbu metod olib borilayotgan ta'lim oluvchilar orasida paydo bo'ladigan nizolarni darhol bartaraf etishga harakat qilish kerak.

“Bahs-munozara” metodini o'tkazishda quyidagi qoidalarga amal qilish kerak:

- ❖ Barcha ta'lim oluvchilar ishtirok etishi uchun imkoniyat yaratish;
- ❖ “o'ng qo'l” qoidasi (qo'lni ko'tarib, ruhsat olgandan so'ng so'zlash)ga rioya qilish;
- ❖ Fikr-g'oyalarni eshitish va tinglash madanyati;
- ❖ Bildirilgan fikr-g'oyalarning takrorlanmasligi;
- ❖ Bir-birlariga o'zaro xurmat.

Quyidagi chizmada “Bahs-munozara” metodini o‘tkazish tuzilmasi berilgan.



Ota va o‘g‘il munosabatining asarda aks ettirilishi

1-o‘quvchi: Bizning millatimizda otaga bo‘lgan hurmat juda kuchli bo‘lib, hatto ota o‘tirgan uyning tomiga ham chiqmaydi deydilar degan gap bor.

2-o‘quvchi: Shunday ekan, nima sababdan Otabek ota- onasida so‘roqsiz uylandi?

3-o‘quvchi: Chunki unga Hasanali otasidek bo‘lganligi uchun hamma gapini aytadi uylantirishiga ham qarshi bo‘lmaydi.

Har bir o‘quvchi bildirgan fikrlarini jamlaymiz

Asardagi ota va o‘g‘il munosabati, Otabek to‘g‘ri uylandi, lekin u ota-onasining orzu havasiga ham qarshi bormadi-ku.

Otabek ota-onasidan so‘roqsiz uylandi, chunki uning tutingan otasi Hasanali bor edi Otabekning ota-onasi Hasanaliga o‘zlariga ishongandan ko‘ra ortiqroq ishonardi shu sababdan Hasanali bu ishga jazm qiladi va Otabek qarshilik ko‘rsatmaydi andisha qiladi.

Bizga ma'lumki, sharqda adabiyot – adab hisoblanadi. Qo'liga qalam olgan odam birovga bir ibrat beradigan, nur sohadigan, ko'ngliga nur beradigan bir narsa yozgisi keladi, yozmog'i ham kerak deb o'ylaymiz. Ana shu niyat juda buyuk hisoblangan. A.Qodiriy ijodida adab masalasi so'zning qudrati borasida ketar ekan, "Adabiyot va san'at" gazetasida Xayriddin Sultonovning "Andisha" nomli maqolasi haqida gapirsak, bu maqola ko'p vaqtgacha tillarda yurdi, hozirgacha bu maqolani qodiriyshunoslar ko'p eslashadi. A.Qodiriy asarlarida, xususan, "O'tkan kunlar"da andisha tushunchasini real bir amaliy ko'rinishlarda aks etishi haqida ayrim mulohazalarni bayon etgan muallif. Aytishimiz mumkinki, andisha ham o'zbekona milliy odobimizning eng muhim bir tushunchalaridan biri, A.Qodiriy asarida faol aks etgan. Biz Kumushning, ya'ni, ayollarning andishasi haqida ko'p gapiramiz. Ayni paytda Otabekning ayniqsa, Yusufbek hojining andishasi ularning mana shu tushuncha atrofida qiladigan xatti-harakatlarini bir ko'z oldimizga keltiraylik. Yusufbek hoji biror bir fikr aytmasin, biror bir ishga jalb qilmasin hammasini ortida uning andishasi turadi, ma'lum mulohazasi turadi. Gohida O'zbek oyimni bilib-bilmasdan yengillik qilib yuborgan ayrim gaplari, ayrim xatti-harakatlaridan andisha qiladi. Gohida kulib qoyadi, gohida ichida bir qandaydir istehzo o'tadi, lekin hamisha har bir ishni andisha bilan qiladi.

Hozirgi kunda ham andisha juda go'zal oilaviy munosabatlar, qaynota-kelin munosabatlarini A.Qodiriy andisha masalasida Yusufbek hoji bilan O'zbek oyimni o'g'illariga endi bu yerdan ham uylantirmasak bo'lmaydi deb aytadi. Otabekni Yusufbek hoji onangni orzusi deb ko'ndirgandek bo'ladi-yu, lekin Otabek marg'ilonga boradi va u Kumushbibini ko'rgandan so'ng yo'q, men shu yerda qolaman, boshqa uylanmayman deb o'ylaydi. Yusufbek hoji qudasi Mirzakarim Qutidorga xat yozadiki farzandimiz borgan edi uzoq qolib ketdi, to'y qilmoqchi edik sizlarni roziligingizni olgani yuborgan edik deydi. Shunda Qutidor Otabekni yoniga chaqirib oxirgi Toshkentdan chiqqanngizda nima sababdan chiqqan edingiz deb so'raydi. Bizning millatimizdagi andisha adab, oilada shunday inson qalbini larzaga keltiradigan javob beradi. Otabek o'zim sizlarni ko'rgani keldim deganida Qutidor to'g'ri aytmadingiz deydi. Kuyovga yolg'on gapiryapsan

demaydi negaki, yolg'on gapirding desa qo'pol bo'ladi kuyovga unday deb bo'lmaydi, bizning millatimizdagi andishani shu yerda ham ko'rsak bo'ladi. Shuning uchun "to'g'ri aytmadingiz" deb aytadi. Millatimizdagi andisha, o'rtadagi parda, o'rtadagi hayo bunday narsalar Yusufbek hojida ko'p ko'rinadi. Uning mulohazasi, uning munavvarligi hatto u kishini nasihatlarini eshitish uchun biz ikki kundosh bir-birimiz bilan tortishib qolar edik deydi. Ulardagi nuroniylik fazilatlari bizning xonadonimizdan hech kim norozi bo'lmasligi kerak degan so'zlari va boshqa hamma so'zlari hozirgi kunda bizning millatimizga suv va havodek zarur.

A.Qodiriyni o'qigan o'quvchi uning asarlarini bir emas bir necha marta o'qisa o'sha adab yuqadi, unga ta'sir qiladi. Misol uchun bir voqeani aytish joizki bir yigit Qodiriyni asarini o'qib juda maftun bo'lib qolibdi, biz shu paytgacha o'qimay yurgan ekanmiz, meni qalbinga bir nur kirdi debdi. So'ngra u yigit ayolini oldiga borib aytibdiki shu Qodiriyni asarini o'qisang men senga bitta yangi hadiya, sovg'a olib beraman debdi, ayoli agar menga hadiya olib bersangiz o'qiyman deb kitobni o'qiy boshlabdi va ozgina o'qigandan keyin menga hadiya kerak emas yana Qodiriyni asarlaridan olib kelib bering degan ekan. Bundan ko'rinadiki, A.Qodiriya olloh tomonidan berilgan bir nur, uni asarlarini tugatishingiz bilan yana sog'inasiz, yana o'qigingiz kelaveradi. Qodiriya millatimizning taraqqiyparvar qahramon insoni hisoblanadi. U shu millatimizni taraqqiy etishida shaxid ketgan insonlardan biri sanaladi.

Masalan, 23 yoshli bola Yusufbek hojini tili bilan aytganda mahalliychilik, kibr-havoga berilishlik, amalparastlik, oxiratni tanazzulga olib borganligi haqidagi so'zlari uchun inson qalbini larzaga keltiradi. Uni o'qigan o'zbekda qandaydir baland ko'tarinki ruh paydo bo'ladi. A.Qodiriya ijodida lafz tushunchasi mavjud bo'lgan. Biz qorachopon, olachopon mo'jorosiga borib yurganda uyog'dagilar bizga tobut chopayotganidan bexabarmiz deb aytadi. Mana shu yerda ham lafz borligini ko'rishimiz mumkin. Yusufbek hojining lavfsizligi qaysidir ma'noda yoshlarning taqdiridagi ma'shum burulishlarga ham sabab bo'lgandek tuyiladi. Lekin kattaroq bir miqyosda olsak mana shu Yusufbek hojini lafzi butun bir millatning qaysidir bir nuqtalarida, qandaydir bir talato'plardan asragan lafz bo'lib

tuyiladi. Ana o'sha olachopon, qorachopon mojarosi ketib qipchoqlarni qirayotgan bir paytda, bunday olib qaralsa, bir tarafdin uni tepasida podshohning o'zi turubdi, hech kim bundan qocholmaydi. Ayni bir so'zda qat'iyat bilan turadigan, o'z qarashlarini hech narsaga alishmaydigan mana shu Yusufbek hoji shu vaziyatda ham bor haqiqatni aytib hatto podshohga ham, Xudoyorxoniga ham qarshi borib o'z fikrini aytadi. Bunday bir biriga pichoq ko'tarish oxir-oqibat nimaga olib keladi, Yusufbek hoji meni bunday bashoratda ishtirok etmagan balki, o'lgan deb hisoblanglar deb chiqib ketadi. Qodiriy, Yusufbek hojini muhabbat bilan tasvir qiladi, komil, iymonli zot deb ta'riflaydi. Iymonli kishining lafzi halok bo'lsa, butun vujudi ham halok bo'ladi. Lafzi harom bo'lsa butun vujudi harom bo'ladi deb aytadi. Tip darajasiga ko'tarilgan obraz "O'tkan kunlar" romanida Yusufbek hojidir. Bu obraz ijtimoiy-tarixiy sharoit, davr va muhitga xos muhim xarakterli xususiyatlarni o'zida namoyon etgan. Qodiriy ishqiy sarguzashtlar ko'rinishida o'lkaning tutqunlikka tushishining bosh sababi jaholat, qoloqlik va o'zaro ichki nizolardir degan fikrni g'oyat ustunlik bilan aytadi. Garchi romanda adib shaxs xarakteri va qismatini muhit, sharoit, ijtimoiy muammolar bilan chambarchas aloqadorlikda tasvir va tahlil etsa-da, inson shaxsining muhit va sharoitga bog'liq bo'lmagan tug'ma, sirli-sehrli g'aroyib shevalariga ham e'tiborni tortadi.

1.2 Asardagi tarixiy shaxs va tarixiy voqelik haqida o'quvchining mustaqil fikrini o'stirish usullari

“O'tkan kunlar” romaninig ma'no-mundarija doirasi nihoyatda keng. Uning tahlilida estetik asos ustvordir, asarda yashiringan go'zallikni topish oson emas. Yashirinmagan narsa hodisada esa go'zallik bo'lmaydi.¹ Unda xilma-xil taqdirilar, ijtimoy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy, oilaviy- ishqiy muammolar qalamga olingan. Biroq ular orasida yurtning taqdiri, mustaqilligi masalasi alohida ajralib turadi. Binobarin, el-yurtning mustaqilligi, birligi masalasi romanning asosiy pafosini tashkil etadi. Asarning bosh qahramonlari Otabek va Yusufbek hojilar shu yurt istiqloli, faqarovonligi, osoyishtaligi yo'lida hayotini, jonini tikkan fidoyi kishilar qiyofasida tasvirlanadi. “O'tkan kunlar” bamisoli va tiniq ko'zgu, unda o'zbek millatining muayyan tarixiy sharoit, vaziyatdagi turmushi, urf-odatlarini, ruhiy-ma'naviy dunyosi, bo'y-basti, qiyofasi keng ko'lamda aniq-ravshan gavdalantiriladi. Romandagi uchlik-oshiq, ma'shuqa va ag'yor romanda Yusufbek hoji va Otabek obarazlarida vatanparvarlik hissi mujjasamlashgan bo'lib, ayniqsa, Yusufbek hojining xalqiga bo'lgan sadoqati, ularning ahvolini o'ylashi, ularning dardini tinglashi Yusufbek hoji obrazida juda ta'sirli qilib ochib berilgan. Asardagi tarixiy shaxslar: Xudoyorxon, Musulmonqul, O'tabboyo qushbegi, Normuhammad qushbegi haqiqatda bo'lgan. Muallif asarda otamning aytishlaricha, Normuhammad qushbegi Toshkent beklaridan eng tuzgi bo'lgan ekan, kabi mulohazalrni izoh qilib ham keltiradi. Otabek va Kumushbibi degan asarda berilgan taqdiridagi aniq shaxslar borligi haqida ma'lumotim yo'q. Balki nomlarni almashtirilgan bo'lishi ham mumkin.

Izzat Sulton yozadi:

*"Men Qodiriydan: "O'tkan kunlar" romaningiz voqeiy asarmi, deb so'radim".
"Yo'q, - dedilar u kishi, - romandagi besh-o'n foiz ayrim tarixiy voqealar,
shaxslargina voqeiy. Qolganlari yozg'uvchining mahorati..²."*

¹ Qozoqboy Yo'ldosh, Muhayyo Yo'ldosh. Badiiy tahlil asoslari. Toshkent: Kamalak, 2016. – B. 90.

² Htt://www. Ziyonet. uz.

Asarning tarbiyaviy ahamiyati juda ham beqiyosdir. Bunga asardan xohlaganCHA misol keltirishimiz mumkin. Hozirgi kunda ham oilalardagi ota – ona, farzandlar o‘rtasidagi munosabatlarda ham bemalol qo‘llasa bo‘ladigan jihatlari ko‘p. “O‘tkan kunlar”dagi tarixiy joylar shaxslar va voqealar haqida gapiradigan bo‘lsak, “O‘tkan kunlar”ning yana bir harakterli jihati unda yozuvchi ijodiy fantaziyasining mahsuli bo‘lgan voqealar, to‘qima obrazlar aniq tarixiy hodisalar, tarixiy shaxslar bilan mohirona uyg‘unlashib yuborilganligida asar voqealari asosan ikki shaharda: Toshkent va Marg‘ilonda bo‘lib o‘tadi. Asar Marg‘ilondagi markaziy bozor yaqinidagi musofirlar saroyi tasviri bilan boshlanadi. Bu joy hozirda ham mavjud bo‘lib, Marg‘ilon shahrining markazidan Go‘ravval tarafga ketishdadir. Garchi Marg‘ilonning tarixiy darvozalari aslicha saqlanmagan bo‘lsa-da, nomlari o‘shalgicha qolgan: Toshloq, Qo‘qon, Yormozor... “O‘tkan kunlar”da Usta Olimning mahallasi “B...” mahalla deyiladi. Poyabzal rastasidan yuqori tomondagi bu mahalla balki Bahrin mahallasidir. Bu mahalla asarda aytilganidek, Marg‘ilon shimoliy darvozasiga yaqindir.. “O‘tkan kunlar” da Usta Alimning yori Saodatning uyi “Ch...” mahallasida, otasi miltiqsoz bo‘lgan deyiladi. Asarda birnecha marta ta’kidlangan “Ho‘ja Ma’oz” mozori hozirda ham mavjud. Hali ham ko‘hna chinorlar, qabrlar o‘sha-o‘sha. Aytishlaricha, bu yerga sahobalardan Mu’oz r.a. dafn etilgan ekanlar. Bu mozor ziyoratgoh joy bo‘lib, Qodiriyning o‘zlari ham bu mozorda tunab qolgan ekanlar. “O‘tkan kunlar” romanida tarixiy shaxslar sifatida Xudoyorxon Musulmonqul kabi obrazlarni keltiradigan bo‘lsak, Xudoyorxon –Qo‘qon xoni Ming sulolasiga mansub. SHERALIXONNING O‘G‘LI. Qaynotasi Musulmonqul tomonidan taxtga o‘tkazilgan. Ammo u yosh bo‘lganligi sababli amalda davlat ishlarini Musulmonqul boshqargan.¹ XIX asr tadqiqotchisi V.Grigoryevning ma’lumotiga ko‘ra, Xudoyorxonning birinchi hukmdorligida kengash to‘rtta qipchoqdan iborat bo‘lgan. 34 Musulmonqul yosh Xudoyorxonni taxtga o‘tqazgandan so‘ng otaliq unvoniga ega bo‘lib, davlat boshqaruvini to‘laligicha qo‘lga kiritadi. U markaziy davlat boshqaruvidagi muhim vazifalar

¹ Mahmudov Sh.Y. —Qo‘qon xonligining ma’muriy boshqaruv tizimi(1709-1876) Diss.t.f.n-T:2007

parvonachi, dasturxonchi, risolachi kabi mansablarga qipchoqlardan tayinlandi. Xudoyorxon hukmronligining dastlabki yillarida Musulmonquli ushbu mansabdorlar bilan kengash olib borgan. XIX asrning 60- yillariga kelib, kengash kengaytirilib, markaziy davlat boshqaruvidagi 12 kishidan iborat mansabdorlar bilan kengash tarkibiga kiritiladi. Ushbu ma'lumotlar Qo'qon xonligining har bir hukmdori davrida kengash a'zolari, ularning tarkibi o'zgarib turganligidan dalolat beradi. Bunda vaziyat turli sabablarga ko'ra yuzaga kelardi. Ba'zi paytlarda xonlik markaziy boshqaruvidagi muhim mansablarni egallagan qo'shbegi yoki parvonachi kabi mansabdorlar biror viloyatga hokim etib tayinlanganda oliy hukmdor huzuridagi Oliy Kengashda ularning o'zni vaqtinchalik bo'sh turgan. Bunday hollarda ularning vazifasini bir amaldor bajargan, ya'ni uning zimmasiga ikki turdagi vazifani bajarish yuklatilgan. Shu jihatdan «O'tkan kunlar» romani faqat Otabek bilan Kumushning ishq tarixi emas, balki tarixda beqiyos shon-shuhratga ega bo'lgan Turkistonning tanazzuli sabablari badiiy jihatdan keng yoritilgan romandir. «O'tkan kunlar» romanidagi voqealar Marg'ilon va Toshkent shaharlarida bo'lib o'tishini eslab qolishingizni istar edik. Shu bilan birga, romanni yaxshiroq anglash uchun XIX asrdagi Turkiston xonliklari tarixini ham, xususan, romandagi voqealar yuz bergan dbilishlozim. Chunki Abdulla Qodiriy bu romanini yozishda tarixchi olimlarning asarlaridagi hujjatlarga ham tayanib ish ko'radi. Ma'lumki, tarixda xonlik markazi Qo'qonda joylashgan bo'lib, Toshkent ahli unga tobe bo'lgan. "Toshkand ustida qonliq bulutlar" bobida yozuvchi tarixiy voqea va shaxslarga e'tibor qaratadi. "Toshkand hokimi bo'lg'an Azizbek Qo'qong'a qarshi bosh ko'targan" degan ma'lumotdan so'ng romanning keyingi boblarida shaharlararo, ikki hududdagi qipchoq hamda qora choponlilar orasidagi ijtimoiy konflikt bayon qilinadi. Tarixiy-biografik romanlarda zamon va makon chegaralari tanlangan tarixiy shaxs-qahramon hayoti solnomasiga ko'p jihatdan muvofiq keladi. Bu tabiiy hol. Ammo adabiyot olamidagi tarixiy asarlar turli asoslar ustiga quriladi. Abdulla Qodiriy o'zining kamtarona ta'biri bilan aytganda, "havas"lanib roman yozishga kirishar ekan,

moziyga nazar tashlaydi. Moziy esa zamon va makon jihatdan cheksiz hamda mavhumdir. Adib “moziy”ga aniqlik kiritaroq “yaqin o‘tgan kunlar”, “xon zamonlari” birikmalarini ilova qiladi. Zero, birinchi o‘zbek romani “O‘tkan kunlar”ning nomlanishida zamon-vaqt ifodasi mavjud. Aslida inson aqli bilan chegaralangan zamon-vaqt eralar, asrlar, yillar, fasllar, oylar, haftalar, kunlar, soatlar... kabi butunlikni, astronomik qatorni tashkil etadi. Ijod ahli tasvirlayotgan voqea-hodisalarining ishonchlilik quvvatini oshirish uchun shu astronomik vaqtdan turli yo‘sinda o‘z dunyoqarashi, mahorati, aql-idrokiga qarab foydalanadi. Boshqacharoq aytganda, badiiy asarda zamon-vaqt fizikaviy mazmundan adabiy-falsafiy mohiyatiga ko‘chadi. Abdulla Qodiriy vaqtdagi “O‘tkan kunlar” mavhumotini romanning birinchi satrlaridayoq parchalaydi. Voqealar sahnaga chiqayotgan zamon alomatini aniq bitib qo‘yadi: “1264-nchi hijriya, dalv oyining o‘n yettinchi, qishki kunlarning biri, quyosh botqan, tevarakdan shom azoni eshitiladir...”. Romanning boshlanishi shunday, ayni chog‘da, adibning asar ichidagi vaqtni ifodalash tamoyillari ham ushbu jumlada mujassam topgan. “O‘tkan kunlar”dagi davr qamrovini belgilash uchun roman oxiriga nazar tashlaymiz. Kumush o‘lgan, uning mozoriga “toshdan o‘yib yasalgan lavha” qo‘yilgan. O‘qiymiz: “... Kumushbibi binni Mirzakarim Marg‘iloniy tarixi tavalludi 1248, vafoti 1269 hijriy, jumad-ul avval...”. Garchand Qanoatsho Avliyo otadan Yusufbek hojiga maktub yo‘llab, Otabekning shahidligi xususida (roman “Xotima”sida berilishicha) hijriy 1277 yil kuzida xabar bergan bo‘lsa-da, “O‘tkan kunlar”dagi voqealar hijriy 1269 yili yakun topadi. Demak, roman ichkarisida taxminan besh-olti yillik zamon bor.

Asardagi tarixiy shaxs va voqelik haqidagi o‘quvchilarning fikrlarini o‘stirishda turli metodlardan foydalanish mumkin, Masalan Keys-stadi metodi, “Qarorlar shajarasi”, “Davra suhbat”, Guruh bo‘lib ishlash, Bahs-munozara kabi bir qancha metodlarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Debat metodidan foydalanib, asardagi tarixiy shaxslarning qarama- qarshi tomonlarini ko‘rib chiqamiz, bu metod o‘quvchini mustaqil va tanqidiy fikrlashga bo‘lgan munosabatini yanada o‘stiradi.

“Debat” metodi

Bu qarama-qarshi nuqtayi-nazarlarning o‘zaro bahsi (to‘qnashuvi) bo‘lib, u o‘quvchilarni tanqidiy fikrlashga, turli masalalarni o‘rganish va o‘zlari haq ekanligiga boshqalarni ishonitirishga o‘rgatadi. Debatlar Qadimgi Gretsiyada yaratilganligi haqida nazariy ma’lumot beriladi. Debatlar bu jamoaning hamkorlikdagi faoliyati bo‘lib, bunda jamoaning har bir a’zosi o‘zining burch va majburiyatlariga ega bo‘ladi, kim g‘alabaga erishganini esa debat yakunida jamoalarning argumentlari, faktlari, favqulodda savollar va ularga berilgan javoblar asosida hakamlar jamoasi yoki o‘qituvchi belgilab beradi.

O‘quvchilar bilan debat o‘tkazganda 3 ta tamoyilga amal qilish kerak:

1. Debatlar ko‘p narsaga o‘rgatadi (Chunki debat o‘tkazishdan maqsad faqat g‘alaba qozonish emas, balki asosiy maqsad debatlar yordamida yangi bilimlarni egallashdir).
2. Jarayonga faol ishtirok va vijdonlilik majburiyati (Bu tamoyil debatning o‘zagi bo‘lib, noto‘g‘ri argument keltirish va savollarga javob berishda mantiqan noto‘g‘ri yo‘ldan ketishning oldini oladi) .
3. O‘zaro hurmatni saqlash (Debat ishtirokshilarining shaxsiga qasddan teskari aloqaga kirishmaslik shart, o‘zga o‘quvchi tomonidan aytilgan nazariya yoki fikrga qarshi chiqayotgan bo‘lsa, uning obro‘cini to‘kish maqsadga muvofiq emas. Chunki debat g‘oyalar va bu g‘oyalarning to‘qnashuvidan iborat).

Debatda 2 ta jamoa ishtirok etadi. 1-jamoa: Tasdiqlovchi tomon sifatida. 2-jamoa: Qarama-qarshi yoki inkor etuvchi tomon sifatida. Jamoalardan so‘zga chiquvchilar **spikerlar** deyiladi. T1, T2, T3-tasdiqlovchi tomon spikerlari. Q1, Q2, Q3-qarama-qarshi tomon spikerlari. Debatlarda quyidagi mahoratlar zarur bo‘ladi: Tanqidiy tafakkur (tanqidiy fikr yuritish), Tadqiqiy malakalar, Tashkiliy malakalar, Tinglash va yozma qayd qilish va taqdim etish kabi ko‘nikmalar shakllantiriladi.

O‘tkaziladigan debatning mavzusi aniq, tasdiqlovchi tugallangan fikr shaklida bo‘lishi kerak.

Tasdiqlovchi tomon spikerlari hakamlarni o‘z nuqtayi-nazarlarining to‘g‘riligiga ishontirishga harakat qiladi (Masalan, asardagi Azizbekning olib borgan ishlari xalqqa juda ham manzur bolgan).

Inkor etuvchi tomon spikerlari tasdiqlovchi tomon nuqtayi nazarining noto‘g‘ri ekanligiga hakamlarni ishontirishga harakat qilishi kerak (Azizbekning yuritgan siyosati xalq tomonidan qoralangan...). **Argumentlash.** Argumentlash orqali har ikkala tomon hakamlarni o‘z nuqtai nazari to‘g‘ri ekanligiga ishontirish kerak. Argumentlar sust yoki kuchli, ishonarli bo‘lishi mumkin. Shuningdek, debat ishtirokshilari o‘z nuqtayi nazarlarini mustahkamlovchi dalillarni (sitatalar, faktlarni, statistik ma’lumotlarni) taqdim qilishlari lozim.

Chalg‘ituvchi savollar. Ko‘pchilik debatlarida har bir ishtirokchiga opponent jamoa spikerining savollariga javob berish imkoniyati beriladi. Bir jamoa spikerining savoli va boshqa jamoa spikerining javobi raundi «siding‘asiga savolga tutish» deyiladi.

Bahs mavzusi: “O‘tkan kunlar” romanidagi “Qipchoq qirg‘ini”ga Yusufbek hoji aybdormi?
Yo‘q. Javob: Qipchoq qirg‘ini bo‘lishiga birinchi o‘rinda Musulmonqul bosh ko‘taradi, u bosh aybdor hisoblanadi. Dalil keltirmoq: U Xudoyorxonga qipchoqlarni yo‘q qilish yo‘llarini aytadi chunki, ular orasida har xil nizolar va kelishmovchiliklar kelib chiqadi
Ha. Javob: Qipchoq qirg‘ini masalasiga Yusufbek hoji aybdor . Dalil keltirmoq. Chunki, u qipchoqlarning jabr- zulmni tugatilishini xohlardi.
Yo‘q. Javob: Musulmonqul boshchiligida uyushtiriladi va Xudoyorxon tomonidan ma’qullanadi. Dalil keltirmoq: Aslida amalda Xudoyorxon bo‘lsa ham uning boshqaruv

ishlarini Musulmonqul boshqarardi.
<p>Ha.</p> <p>Javob: Qipchoq qirg‘ini bo‘lishini Yusufbek hoji xohlar edi.</p> <p>Dalil keltirmoq: Chunki Qipchoqlar davlat hokimyatini egallab olib xalqqa jabr-zulm qilishar edi.</p>
<p>Yo‘q.</p> <p>Javob: Yusufbek hoji qirg‘inga qarshi bo‘lishiga qaramasdan Toshkent beklari ham uning fikrlarini ma’qullamaydilar.</p> <p>Dalil keltirmoq: Chunki, Qipchoqlar Toshkent beklariga ham katta zarar keltirayotgan edilar.</p>
<p>Yo‘q.</p> <p>Javob: Yusufbek hoji ertalab o‘g‘li bilan choy ichmoqchi bo‘lib, mehmonxonaga kiradi, Otabek qovog‘ini solgancha otasiga salom ham bermaydi.</p> <p>Dalil keltirmoq: Chunki, o‘z otasini qipchoq qirg‘inining bosh omillaridan deb qaror qo‘ygan edi, nihoyat, Yusufbek hoji majlisda bo‘lib o‘tgan gaplarni o‘g‘liga gapirib beradi.</p>
<p>Ha.</p> <p>Javob: Qirg‘in haqidagi Rajabbeknikida majlisda Yusufbek hoji qatnashgan edi.</p> <p>Dalil keltirmoq; Ushbu majlisda qipchoq qirg‘inini uyushtirish masalasi muhokama qilingan edi.</p>
<p>Yo‘q.</p> <p>Javob: Chunki Yusufbek hoji urush tarafdori bo‘lmagan tinchlik bo‘lishini xohlagan.</p> <p>Dalil keltirmoq: Agar urush bo‘lsa, xalqning qiynalishini azob chekishini oldindan bilar edi.</p>

Bu uslubdan foydalanishda o‘qituvchi o‘quvchilarni baholash uchun asos xizmatini o‘tovchi ajoyib materialga ega bo‘ladi. Yozma bahslar uslubiyati

bunday muloqotlarni o'quv xonasidagi barcha o'quvchilar ishtirokida yozma shaklda o'tkazish imkonini beradi. Va albatta, o'quvchilarni mustaqil fikrlarining ravan tekis bo'lishida interfaol metodlarning o'zni ahamyatga egadir. Har bir o'quvchi albatta, o'zining mustaqil fikrini, boshqalarning fikriga bo'lgan munosabatni bildirishi lozim. Dars jarayonlarida debatlar va boshqa metodlardan foydalanib dars o'tish darsning nafaqat samaradorligini o'quvchilarning bilim, ko'nikma malakalarini o'stirishda katta ahamyatga ega hisoblanadi, shuning uchun har bir o'qituvchi interfaol metodlardan foydalanib dars o'tsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Yuqorida keltirilgan namuna asosida asar qahramonlarining o'ziga xos xususiyatlari, turli xil ziddiyatli va qarama-qarshi holatlarini oshishda ushbu metoddan foydalanish maqsadga muvofiq. Ta'lim jarayonining boshqaruvchisi "Debat" metodining ijobiy, ya'ni afzalliklari va kamchiliklarini oldindan bilgan holda ushbu metodni amalga oshirish barobarida o'quvchining yosh xususiyatlari, uning fikrlash doirasi, faktlar bilan dalillay olishi, asar voqeligidagi tarixiy hamda o'ziga xos nozik jihatlari ruhiy tahlil qila olishi mumkinligiga e'tibor qaratishi lozim bo'ladi.

Birinchi bob bo'yicha qisqacha xulosa

Xulosa sifatida romanda tasvirlangan obrazlar talqinida shuni aytish mumkinki, avvalo "O'tgan kunlar" romani to'qima qahramonlarning hayotiylik kasb etishi va tarixiy voqealarga uyg'unligi jihatidan ham, mujassam butunligi va tilidagi nafosati jihatidan ham o'zbek adabiyoti xazinasidagi durdonalar qatoridan o'rin olgandir. "O'tgan kunlar" o'zbek adabiyotida ilk roman bo'lishining o'zi bilanoq ilgari bosilgan katta qadam edi. Unda realizmning asosiy tamoyillari yuqori badiiy saviyada amalga oshirildi. Roman, umuman, o'zbek adabiyotida yetuk realizmga asos soluvchilik rolini o'ynadi desak adashmagan bo'lamiz. Ayniqsa, Yusufbek hoji va Otabek obrazlaridagi munosabat o'zgacha qilib tasvirlangan, ota va o'g'ilning suhabati asarda o'zbekona qilib ochib berilgan. Tarixiy shaxslaning ham asardagi qiymati va tarixiy voqelarning keltirilishi Musulmonqul, Xudoyorxon va O'ttaboy qushbegi kabi obrazlar talqinini asarda keltirilishini muallif juda yaxshi ko'rsatib o'tgan. Asardagi tarixiy shaxslarni debat metodi orqali o'quvchilarga tushuntirish ularning fikrlarini o'stirishda

II BOB. Asar tahlilida interfaol metodlardan foydalanish usullari

2.1 Asar tahlilida kino-videomateriallardan foydalanish

Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta'lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi. Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilarning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta'lim–tarbiya jarayonining samaradorligini kafolotlovchi pedagogik texnologiyalarini qo'llash borasida katta tajriba to'plangan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvshi metodlar *interfoal* metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Quyidagi ta'lim amaliyotida foydalanilayotgan interfoal metodlardan bir nechtasining mohiyati va ulardan foydalanish borasida so'z yuritamiz.

O'zbek tili ta'limida mazkur metod mashg'ulotlar jarayonidagi faollikni ta'minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag'batlantirish hamda bir xil fikrlash inertsiyasidan ozod etish, muayyan mavzu yuzasidan rang-barang g'oyalarni to'plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish jarayonining dastlabki bosqishida raydo bo'lgan fikrlarni yengishga o'rgatish ushun xizmat qiladi. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasining ko'tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi. Bu metodlarni interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham atashadi. Interfaol metodlar deganda-ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi,

ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondoshuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'lim samarasi yuqoriroq bo'lgan o'qish-o'rganish;
- ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimning ham e'tiborga olinishi;
- o'qish shiddatini ta'lim oluvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi;
- ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o'rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Interfaol metodlar ta'lim samaradorligini oshirib o'quvchilarni darsga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi Hozirgi kunda dars jarayonini jonli tarzda o'tkazish, unda ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlarni o'quvchilarga to'laroq yetkazish uchun interfaol metodlardan foydalanish zamonaviy pedagogikaning dolzarb talabi bo'lib xizmat qiladi. Chunki bu metodlar o'quvchilar orasida faollikni yanada kuchaytiradi va mavzuga oid bo'lgan qiziqishni yanada oshiradi. Adabiyot o'qitishda asosiy faollik o'qituvchining o'zida bo'lishi kerak. Shundagina o'quvchilar orasidagi faollikni ta'minlay oladi. Interfaol metodlarlar nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlash, ularning amaliy malaka va ko'nikmalarga aylanishini ta'minlabgina qolmay, balki ta'lim oluvchilarda muayyan axloqiy-irodaviy sifatlarni ham tarbiyalashga yordam beradi. D. B. El'koninning fikriga ko'ra, "Xuddi shu oddiygina o'yin orqali o'sib kelayotgan bolaning tasavvuri ilk marotaba qaror topa boshlaydi"¹. Bir qancha izlanishlar shu fikrga olib keladiki, o'yin - bu taraqqiyotning rolidir, uning kelajakka, rivojlanishga qaratilgan, undan kelib chiqadigan qonun-qoidalar, iroda hamda matonat maktabidir. "O'tkan kunlar" romanini tahlil qilishda "Qarorlar shajarasi" metodidan foydalanadigan bo'lsak, uning tuzilmalari

¹ Эльконин Д.Б. Психология игры. Москва. Педагогика. 1978.

quydagilardan iborat bo‘ladi, darsni boshlashda o‘quvchilarga dars mavzusi e‘lon qilinadi uyga vazifa so‘raladi va bugungi darsning maqsadi tushuntiriladi. “O‘tkan kunlar” romani tahlili jarayonida qo‘llaniladigan “Qarorlar shajarasi” metodi, uning ta‘limiy imkoniyatlari va bosqichlari haqida batafsil tushuntirilib o‘tiladi, shuningdek, har bir bosqichi uchun ajratilgan vaqt hajmini aniqlanadi, darsdan kutilayotgan natijalarni eslatiladi.

O‘quvchilar dars mavzusi hamda dars bosqichlari qoidalari, kutilayotgan natijalarni aniq tushunib olganlaridan so‘ng, ularni guruhlariga ajratilib, dars muammosi e‘lon qilinadi

“Qarorlar shajarasi” metodi

Muayyan fan asoslari borasidagi bir qadar murakkab mavzularni o‘zlashtirib, ma‘lum masalalarni har tomonlama, puxta tahlil etish asosida ular yuzasidan muayyan xulosalarga kelish, bir muammo xususida bildirilayotgan bir necha xulosalar orasidan eng maqbul hamda to‘g‘risini topishga yo‘naltirilgan texnik yondashuvdir. Ushbu metod, shuningdek, avvalgi vaziyatlarda qabul qilingan qaror (xulosa)lar mohiyatini yana bir bora tahlil etish va uni mukammal tushunishga xizmat qiladi.

Guruh yoki sinf o‘quvchilari ishtirokida qo‘llaniladigan “Qarorlar shajarasi” bir necha o‘n nafar o‘quvchilarning bilimlari darajasini aniqlash, ularning fikrlarini jamlash va baholash imkonini beradi. Ta‘lim jarayonida mazkur metodning qo‘llanilishi muayyan muammo yuzasidan oqilona qaror qabul qilish (xulosaga kelish)da o‘quvchilar tomonidan bildirilayotgan har bir variant, ularning maqbul hamda no maqbul jihatlarini mufassal tahlil etish imkoniyatini yaratadi. Mashg‘ulot jarayonida o‘quvchilar:

MUAMMO

1-G‘OYA+2- G‘OYA+3- G‘OYA QAROR

tizimida faoliyat olib borishadi.

“Qarorlar shajarasi” metodi quyidagi shartlar asosida qo‘llaniladi:

1. O‘qituvchi mashg‘ulot boshlanishidan oldin munozara, tahlil uchun mazvuga oid biror muammoni belgilaydi. Guruhlar tomonidan qabul qilingan xulosalarni yozish uchun plakatlar tayyorlaydi.

2. O‘qituvchi o‘quvchilarni 4 yoki 6 nafar kishilardan iborat guruhlariga ajratadi. Muammoning hal etilishi, u borada eng maqbul qarorning qabul qilinishi uchun muayyan vaqt belgilanadi.

3. Qarorni qabul qilinish jarayonida guruhlarining har a‘zosi tomonidan bildirilayotgan variantlarning maqbullik hamda nomaqbullik darajalari batafsil muhokama qilinadi. Har bir variantning afzallik va noafzallik jihatlari yozib boriladi. Bildirilgan variantlar asosida muammoni ijobiy hal etishga xizmat qiluvchi usul xususida guruh a‘zolari bir to‘xtamga kelib oladilar.


4. Munozara uchun ajratilgan vaqt nihoyasiga yetgach, har bir guruh a‘zolari o‘z guruhi qarori borasida axborot beradilar. Zarur hollarda o‘qituvchi rahbarligida barcha o‘quvchilar bildirilgan xulosa (qaror)larni bir-biri bilan qiyoslaydilar¹.

Muammo yuzasidan bildirilgan xulosa (qaror)lar borasida savollar tug‘ilgudek bo‘lsa, ularga javoblar qaytarilib beriladi, noaniqliklarga aniqlik kiritiladi. Mabodo barcha guruhlar muammo yuzasidan bir xil qarorga kelishgan bo‘lsa, o‘qituvchi buning ham sababini izohlaydi. Ushbu metodning o‘ziga xos jihati shundaki, bunday muammo quyidagi loyiha asosida yechimini topadi:

“Qarorlar shajarasi” metodining o‘ziga xos jihati shundan iboratki, bu bevosita ma’lum loyiha asosida qo‘llaniladi. Mazkur loyiha quyidagi ko‘rinishga ega:

¹ Alimova D., Axmetova K., Abdullayeva R., Didaktik materiallar majmuasi va vositalari: O‘quv qo‘llanma- T.: TDPU, 2016.-B. 34.

“Qarorlar shajarasi” metodi					
Umumiy muammo					
1-qaror varianti		2-qaror varianti		3-qaror varianti	
Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi



“Yelpig‘ich” metodi

O‘quvchilarni biror mavzuning ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik va kamchiliklari, foyda va zararlarini belgilashni o‘rganadi. Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir yo‘la axborot beriladi. Ayni paytda, ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama qilinadi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik va kamchiliklari, foyda va zararlarini belgilanadi.

Jarayonning bosqichlari ketma-ketligini keltirishimiz mumkin:

“O‘tkan kunlar” romanini “Yelpig‘ich” metodida o‘qitish.


O‘zbek oyim va Zaynab obrazlari tahlili			
O‘zbek oyim obrazi		Zaynab obrazi	
Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi
Uddaburon, Ustamon, Chaqqon, epchil	Dimog‘i osmonda, Uncha-muncha odamni mensimaydigan	Sabrli, Sadoqatli,	O‘zining mustaqil fikriga ega emas
Xulosa: 1-guruh O‘zbek oyim obrazi orqali o‘zbeklarga xos ona obrazi tasvirlangan. 2-guruh To‘g‘ri, Zaynab ham sevishga sevilishga haqli, ammo mustaqil fikrga ega bo‘lmasdan bopshqalar fikri bilan yurishi uning katta kamchiligi hisoblanadi.			

Mazkur jarayonlar ketma-ketligi ravishda tarqatma material shaklida o‘quvchilarga beriladi. Ularga jarayon bosqichlarining ketma-ketligini to‘g‘ri belgilash uqtiriladi. Vazifa avval yakka holda, so‘ngra guruh tarzida bajariladi. Guruhda ishlash jarayonida o‘quvchilarda o‘z fikrini isbotlash, shaxsiy qarashlarini guruh a‘zolariga teran yetkazib berish kabi qobiliyatlari shakillanib boradi.

Shunindek, 2 qahramonning afzallik va kamchiliklari aniqlangach, o‘quvchilar tomonidan umumiy xulosa keltirilishi mumkin. Ushbu xarakterlar orqali o‘quvchilarda ishlab chiqarish to‘g‘ri umumiy tasavvur hosil bo‘ladi

“Davra suhbat” metodi

Aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta‘lim oluvchilar tomonidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o‘qitish metodidir. “Davra suhbat” metodi qo‘llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta‘lim oluvchining bir-biri bilan “ko‘z aloqasi”ni o‘rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og‘zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og‘zaki davra suhbatida ta‘lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta‘lim oluvchilardan ushbu savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so‘raydi va aylana bo‘ylab har bir ta‘lim oluvchi o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki bayon etadilar. So‘zlayotgan ta‘lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo‘lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo‘lingandan so‘ng muhokama qilinadi. Bu esa ta‘lim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi¹



Belgilar:

- 1-ta‘lim oluvchilar
- 2-aylana stol

¹ Interfaol ta‘lim usullari: o‘quv qo‘llanma/ Sh.K. Shayakubov, R.X.Ayupov ; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi.-T.:Tafakkur bo‘stoni, 2012.

Yozma davra suhbatida ham stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir ta'lim oluvchiga konvert qog'oz beriladi. Har bir ta'lim oluvchi konvert ustiga ma'lum bir mavzu bo'yicha o'z savolini beradi va "Javob varaqasi"ning biriga o'z javobini yozib, konvert ichiga solib qo'yadi. Shundan so'ng konvertni soat yo'nalishi bo'yicha yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi. Konvertni olgan ta'lim oluvchi o'z javobini "Javoblar varaqasi"ning biriga yozib, konvert ichiga solib qo'yadi va yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo'ylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha konvertlar yig'ib olinib, tahlil qilinadi.

"O'tkan kunlar" romanini o'rganishda o'qituvchi roman haqida ma'lumot berib, o'quvchilarga savol bilan murojaat qiladi. Savollar quydagicha bo'lishi mumkin: "Nima sababdan xalq Azizbekning xonlikdan mahrum qildi?", "Hasanalining Yusufbek hoji xonadonidagi mavqeyi haqida nima deb o'ylaysiz?", "Qipchoqqa qirg'in masalasida Otabek nima sababdan otasini ayblaydi"? shu kabi savollarga o'quvchilar o'zlari bilganicha javoblar berishadi va bahs-munozara tarzida darsni tashkil qiladilar.

1-o'quvchi: Chunki, Azizbek o'z manfaatini o'ylab xalqning ahvolini tushunmaydi, shu sababdan xalq uni quvg'in qiladi;

2-o'quvchi: Azizbek xalqiga 32 dirhamdan soliq solishni buyuradi, bundan habar topgan olamon uni shhardan haydab chiqaradi;

3-o'quvchi: Xalq o'zlariga boshqa Xon saylamoqchi bo'lganliklari uchun Azizbekni quvg'in qilishni rejalashtiradi;

4-o'quvchi: Xasanali va Otabek o'rtasida ota-o'g'il munosabati mavjud bo'lib, buni hattoki Otabekning o'z otasi Yusufbek hoji ham takidlaydi;

5-o'quvchi: Xasanalining bolasi yo'qligi sababli u Otabekni o'zining farzandidek ko'radi va uni otasi Yusufbek hojiga ham aytmasdan uylantiradi chunki ular Xasanaliga o'zlariga ishongandek ishonar edi.

6-o'quvchi: Otabek majlisdagi voqealardan habari bo'lmaganligi uchun otasini aybdor qiladi otasini hafa qiladi;

7-o‘quvchi: Ushbu qirg‘inga Yusufbek hoji boshchilik qilgani uchun Otabek shunday deydi va hamma haqiqatlarni otasidan eshitgandan so‘ng otasining aybsizligini bilib, undan uzr so‘raydi

Barcha o‘quvchilar fikrlarini aytib bo‘lgach, umumiy fikrni o‘qituvchi aytadi va fikrlarni xulosalaydi.

“Ikki tomonlama kundalik” metodi

Bu metodda ikki qisimdan iborat bo‘lgan jadval tuziladi. Jadvalning birinchi qismiga “O‘tkan kunlar” romanidagi o‘quvchilarga notanish bo‘lgan so‘zlar yoziladi. Ikkinchi qismi ochiq qoldiriladi O‘quvchilar esa ochiq qolgan qismga shu so‘zning bugungi kundagi ma’nosini topib yozadilar va izohlaydilar. O‘qituvchi esa javoblarni tinglab natijalarni to‘plab boradi. Bu metod o‘quvchilarga romanni yaxshi tushunishiga katta yordam beradi. O‘quvchilar topshiriqni bajarish jarayonida “O‘tkan kunlar” romanidagi notanish bo‘lgan so‘zlar lug‘ati hosil bo‘ladi.

I qism	II qism
Yarlaqash	Kechirmoq
Alva’ddayn	Va’dasiz bo‘lmayin
Jonso‘z	Jon o‘rtovchi, azob beruvchi
Mavzun	Benuqson, Xushbichim
Binti	Qiz
Hannos	Shayton
Itob	Ta’na, Malomat

“O‘tkan kunlar” romanida videomateriallardan foydalangan holda o‘quvchilarga quydagicha topshiriqlar berishimiz mumkin, romanning o‘zi va kinosini solishtirib chiqishni o‘quvchilarga topshiriq qilib beramiz, o‘quvchilar ikkalasidagi farqlarni

topib keladi va dars davomida taxlil qiladilar. Asarni tahlilida videomateriallardan foydalanib o'rganish nafaqat o'quvchilarning bilimlarini oshirish bilan bir qatorda ularning darsga bo'lgan munosabati, dars davomida aktiv qatnashishida yaxshi samaralar beradi. Bunda o'qituvchi o'quvchilarga asardan videolavha ko'rsatadi, o'quvchilar qo'yilgan lavha asosida bahs-munozaraga kirishib, tahlil qiladilar. "O'tkan kunlar" filmi bizning o'zbek milliy klassik asarimiz hisoblanadi. Bu film yoki asar yana qayta-qayta chop etiladi. Kitobxonlar bu asarni qayta-qayta o'qiydi Bizga ma'limki, "O'tgan kunlar" asarini o'qigan yoki filmni ko'rgan inson borki, har biri shu asardagi yoki bo'lmasa filmdagi Otabek va Kumushni tasavvur qilmaslikni iloji yo'q. "O'tgan kunlar" filmi 1969-yili o'zbek yozuvchisi Abdulla Qodiriyning shu nomli romani asosida rejissor Yo'ldosh A'zamov tomonidan suratga olingan. Filmda bosh rollarni O'lmas Alixo'jayev (Otabek) va Gulchehra Jamilova (Kumush) ijro etishgan. "O'tgan kunlar" tariximizdagi xon zamonlari haqida hikoya qiladi. Ularning ilk uchrashuvlari asarda ham, filmda ham visol oqshomlarigacha yoritilmagan. Otabek Mirzakarim qutidor tomonidan kuyov deb aytilib fотиha qilingandan so'ng to'y kuni aniq bo'ladi va to'y tugagach, Kumush va Otabek chimildiqda uchrashadi. Asarning eng kulmunatsion nuqtasi shu yerda desak adashmagan bo'lamiz. Negaki, Kumush va Otabekning ilk uchrashuvi ularning muhabbatlari debochasi bo'lgan ariq bo'yidagi uchrashuv shu yerda chimildiqdagi uchrashuvdan so'ng ochib beriladi. Otabek va Kumush uchrashuvi, Otabekning o'z sevikli yoriga yetishganiga ishongisi kelmagandek, "Jonim!" deya barcha hayajonini, barcha jozibasini o'z ichiga olgan bu so'z inson qalbini larzaga solishi hech gap emas. Kumush esa qo'rquv ichida "Ushlanmangiz..." deyishi va shu holatni tasvirlashda aktyor va aktrisaga juda katta talab qo'yilgan. Kumush qo'rquv aralash yer ostidan asta Otabekka qarashi va undagi qo'rquv baxtga aylanishi ekranda juda ta'sirli qilib ochib berilgan. Otabek va Kumush uchrashuvi, Otabekning o'z sevikli yoriga yetishganiga ishongisi kelmagandek, "Jonim!" deya barcha hayajonini, barcha jozibasini o'z ichiga olgan bu so'z inson qalbini larzaga solishi hech gap emas. Kumush esa qo'rquv ichida "Ushlanmangiz..." deyishi va shu holatni tasvirlashda aktyor va aktrisaga juda katta talab qo'yilgan. Kumush

qoʻrquv aralash yer ostidan asta Otabekka qarashi va undagi qoʻrquv baxtga aylanishi ekranda juda taʼsirli qilib ochib berilgan. Albatta Kumushning Otabekka "Siz oʻshami?" deb beriladigan savol bundan taxminan oʻttiz besh, qirq yil muqaddam unga erish tuyular, muxlislarning goh koʻcha-koʻyda, goho bozorda, goho esa avtobusda aktrisaga shu gap bilan yuzlanishi qaysidir ma'noda gʻashiga tegsa ham "Men oʻsha...roqman" deb javob qaytarar va chuqur xoʻrsinib qoʻyardi. Oʻsha kezlarda film epizodi orqali tomoshabinlarga yod boʻlib ketgan bu savolni u qadar qabul qilolmaganiga, ehtimol, ushbu kino asarining endigina ekranlarga uzatilgani sabab boʻlganmikan?. Oradan juda koʻp yillar oʻtdi. Vaqtning buyuk hakamligi shundaki, hayotdagi asl narsa-hodisalar uning sinovidan muvaffaqiyat bilan oʻta oladi. Oʻzbekiston xalq artisti, iste'dodli aktrisa Gulchehra Jamilovaga muxlislar hamon "Siz oʻshami?" deb savol beradilar. "Kumush" ularga qarab mayin jilmayadi va sira ikkilanmay "Men oʻshaman..." deb javob qaytaradi. Asardagi qahramonlarning ushbu soʻzlariga ahamiyat beradigan boʻlsak juda taʼsirli qilib ifodalangan.

...-Jonim!

-Ushlamangiz...

-Nega qochasiz?

- Nega qaramaysiz?

-Siz oʻshami


-Ha, men oʻsha.

-Koʻzlarimga ishonmayman.

-Men ham.

-Kutilmagan baxt...»¹

¹ Qodiriy A. Oʻtgan kunlar. T.: Sharq, 2016. –B. 60.



- Jonim!
- Ushlamangiz...



- Siz o'shami?



- Kutilmagan baxt.

2.2 Asarda Zaynab va Kumush fojeasi tahlilida “Keys-stadi”, “Oqlovchi va Qoralovchi” metodlardan foydalanish usullari

“...atlas ko‘rpa, par yostiqliq quchog‘ida sovuqdan erinibmi va boshqa bir sababdanmi uyg‘oqliq yotgan bir qizni ko‘ramiz. Uning zulfi par yostiqliqning turlik tomonig‘a tartibsiz suratda to‘zg‘ib, quyuuq jinggila kiprik ostidag‘i timqora ko‘zlari bir nuqtag‘a tikilgan-da, nimadir bir narsani ko‘rgan kabi... qop-qora kamoni, o‘tib ketkan nafis, qiyig‘ qoshlari chimirilgan-da, nimadir bir narsadan cho‘chigan kabi... to‘lg‘an oydek g‘uborsiz oqliq yuzi bir oz qizilliqg‘a aylangan-da, kimdandir uyalg‘an kabi...”¹¹ Ta‘rifni oxiriga yetkazmasdanoqliq gap kim xaqida borayotganini anglab olish xech kim uchun qiyinchilik tug‘dirmaydi. Bu qiz, suratdagi malak barchamizga yaxshi tanish bo‘lgan Kumushbibi. Uni Ollloh Mirzakarm qutudordek oqliq, Oftoboyimdek keng mulohazali dono ayolning farzandi bo‘lish baxti bilan siylagan. Ota-onasining yakka-yu-yagonasi ko‘zlarining oqliq-u qorasi bo‘lgan bizning malak Kumush bilimli, oqliq, farosatli va go‘zal xulqli qiz bo‘lib voyaga yetdi. 18 yoshga to‘lmasidanoqliq ostonasini qoqliq keladigan sovchilarning adog‘i bo‘lmas, ammo Kumushga bu keladurg‘on sovchilardan birortasi ham maqliq kelmas edi. U o‘z taqdiri boshqa bir inson bilan bog‘liqliqini yurakdan his etardi. Hislari unga hiyonat qilmadi. Kumush Toshkandning mashhur a‘yonlaridan bo‘lgan Yusufbek hojining aqliq, kelishgan ilimli o‘g‘li – Otabekning, u esa Kumushning taqdiriga aylandi. U go‘zallig‘i bilan bir qatorda biroz xiylakor va makkora edi. Biz buni uning Toshkentga kelganida, Marg‘ilonga onasiga yozgan maqliqubidan bilishimiz mumkin. Uning maqliqubda quyidagi so‘zlar bitilgan edi: “Zaynab bilan uyatsizcha ko‘p olishdiqliq, bu it-mushuklikdan biz zerikmasak-da, kuyavingizning jonidan to‘ydirayozdiqliq. Mundan bir muncha ilgari biz ikki kundashning yuzimizga: “Agar shu holda davom eta bersalaring ikkavlariga ham barobar javob berib qutilaman!” dedi. Uning bu taqdidid ikkimizga emas, balki bittamizgagina xos edi. Men bu taqdididan albatta qo‘rqmadim ,

¹¹ Abdulla Qodiriy. O‘tkan kunlar. T.: Sharq nashriyoti. 2004.- B. 28.

ammo “Zaynab tushunib qolmasa yaxshi edi” deb qo‘rqdim...” Kumush o‘ziga, Otabekni muhabbatiga juda qattiq ishonardi. Bir so‘z bilan aytganda, juda qisqa vaqt ichida Kumush Yusufbek Hoji xonadoninning erka va sevimli keliniga aylandi. Bu esa uning o‘ziga bo‘lgan ishonchini yanada oshirardi. Qaynonasi O‘zbek oyim uchun toki Marg‘ilonliq kelin kelgunga qadar Zaynabdan-da suyukli kelini yo‘q edi. Ammo Kumush kelgach O‘zbek oyimning muhabbati unga ko‘chdi va Zaynab yana chetda qoldi.

Zaynab Kumushdek dilrabo bo‘lmasada kuxlikkina qiz. Kumushdan bir yoshga kichik. Shuning uchunmi, yoki o‘tib ulg‘aygan muhiti sababmi Kumushdek serfikir emas. Uncha-muncha narsalarni fikirlashga aqli yetmaydi-yu, lekin bolalarcha beg‘ubor, ko‘ngli toza qiz. U bilan Kumushning o‘xshashligi, bu - ularning taqdirleri bir kishi bilan bog‘liqligidir. Ya’ni ikkisi ham bir kishining yodi birla yashaydi. Kumushning umri juda qisqa bo‘ldi. Ammo mana shu qisqa hayotida u muhabbat deb atalmish eng oliy tuyg‘uni nima ekanligini bildi. Taqdir uni Jannat rayhoni bo‘lmish farzandek buyuk ne‘mat bilan siyladi. Turmushida vafoli yor, qaynona - qaynotasining sevimli kelini bo‘lish nazarimda har bir qizning eng katta orzusi bo‘lsa kerak. Kumush mana shunday baxtga ega bo‘lgan tolei baland O‘zbek qizining timsoli edi! Demak u bekorga yashamagan. Zero, inson hayoti qancha yashagani bilan emas, balki qanday yashagani bilan o‘lchanadi.

Zaynab esa bunday baxtni mingdan birini bo‘lsada, his qila olmadi. U na eri tomonidan, va na qaynona - qaynotasi tomonidan sevildi. Otabek Kumushning ko‘zlari qizarinquirab kipriklari namlangancha, Zaynabga uylanishiga moyillik bildirayotganda oshiq yigit ma’shuqasi kunglidan o‘tayotgan hislarni anglab yetmog‘i va Toshkentning oldi qizlaridan bo‘lgan Zaynabbegimning ham hayotiga zomin bo‘lmasligi kerak edi. Aynan mana shu Otabek tomonidan Zaynabga nisbatan qilingan nohaqlik uning alamzada bo‘lib qolishiga sabab bo‘ladi. Ammo u qanchalar alamzada bo‘lmasin opasi Xushro‘ychalik zolim, u kabi yovuz emas. Shu o‘rinda bu ikki opa-singilning taqdir yo‘llariga bir nazar tashlasak. Xushro‘y ichi qoralik va

shumlikning, battollik va yomonlik, o'jarlik va xudbinlikning timsoli bo'lib gavdalanadi. U yaxshilik, do'stlik, qarindoshlik kabi insoniy munosabatlarni aslo tan olmaydi. Buni biz uning: "Men yig'lashni bilmayman! Kishilar yig'laganda kulgim qistaydi... Dushman o'zi nima degan so'z? Men senga boya ham aytdim: kishini dunyoda do'sti yo'q, magar nafsiga o'zi do'st; kishini dunyoda dushmani yo'q magar nafsiga o'zi dushman! Masalan, sen o'zing otanga, onanga do'stim deb ishonding. Ammo ulardan nima yaxshilik ko'rding?" degan zaharxanda so'zlaridan ham bilishimiz mumkin. Uning turmush qurganiga (agar uning turmushini, turmush deb bo'lsa) 6 – 7 yil bo'lsada farzandsiz edi. Xalqimizda nimani xor qilsang, o'shanga bo'lasan zor degan ibratli so'z bor. Bu naqil Xushro'y taqdirida o'z isbotini topdi desam noto'g'ri bo'lmas. Ya'ni, bu zolim xotin turmushining ilk kunlaridayoq kundoshini va uning norasida farzandini yuzsizlarcha ko'chaga quvdi va shuning uchun hayot uni befarzandlik taqdiri bilan "siyladi". Xayratlanarlisi, bu ikki opa-singilning qaysidir ma'noda taqdirlari bir-biriga o'xshash. Ikkisi ham ikkinchi xotin, xar ikkalasi ham chin muhabbat baxtini bilmay o'tkan baxtiqaro ayol. Sof muhabbat, beg'ubor sevgi dunyodagi jamiki narsalardanda aziz va mo'tabardir. Aytishlaricha, Olloh o'zining eng sevgan bandalarigagina chin muhabbat baxtini berar ekan. Shunday ekan, Xushro'y bunday baxtga shak-shubhasiz noloyiq. Ammo Zaynab baxt nashidasini surushga, yorim deb bir yostiqa bosh qo'ygan kishisi (Otabek) bilan shirin hayot kechirishiriga to'la xaqli edi. U hech narsa qilmadi, faqatgina taqdiri qo'lida nobud bo'ldi.

“Keys-stadi” metodi

Keys-stadi ta'lim metodini turli holatlarni o'rganishda qo'llash – hayotdan olingan odatdagi vaziyatlarni o'rganishni tashkil etish yoki sun'iy yaratilgan vaziyatlarga asoslangan holda ta'lim oluvchilardan tegishli muammolarning maqsadga muvofiq yechimlarini izlashni talab qilishga qaratilgan ta'lim jarayonidan iborat. Bu metod ta'lim oluvchilarga mavzuga tegishli hayotiy vaziyatni tashxis qilish, farazlarni ifodalash, muammolarni aniqlash, qo'shimcha axborotlarni yig'ish, farazlarga aniqlik

kiritish va muammolarni echish hamda ularni bajarishning aniq bosqichlarini loyihalash bo'yicha amaliy faoliyatlarini modellashtirish imkonini beradi.

Muayyan hayotiy vaziyatlarga bag'ishlangan keyslardan foydalanish ta'lim jarayonini haqiqiy hayot bilan bog'laydi. Keysni ko'rib chiqishda ta'lim oluvchilar ta'lim olish jarayonini yaratadilar. Shu jarayondagi o'zaro harakatda ularning haqiqiy fikr almashish holatlari kelib chiqadi. Keys ta'lim oluvchilarga tahlil qilish, qiyoslash yo'llarini qidirish va muammoni echish erkinligini beradi, mavzuni yana ham chuqurroq o'rganishga chorlaydi. Ushbu metod orqali asarda ifodalangan g'oyalar asosida "Keys –stadi" metodidan foydalangan holda o'rganamiz. Bunda muammo qilib: "Asarda nima sababdan uch taqdir fojiga yuz tutdi?"- degan masalani muammo sifatida olamiz. O'quvchilar bunga sabab bo'lgan omillarni birma-bir ko'rsatishadi va muammoning yechimlari beriladi

Keys-stadi usuli

Muammoli vaziyat	Muammoli vaziyat sabablari	Muammoli vaziyat yechimlari

O'quvchilarning taxminiy javoblari:


Muammo turi	Muammoning kelib chiqish sababi	Muammoning yechimi
Asarda nima sababdan uch taqdir fojiaga yuz tutdi?	Ota- ona orzusi. Muhabbatning kuchliligi. Chin ayollik baxtiga erishish. Tashqi muhitning ta'siri.	Ota-ona o'zlarining orzularini o'ylamasdan, yoshlar taqdirini o'ylab ish ko'rishi kerak edi. Otabek Zaynab taqdiriga befarq bo'lmaganda, asar bunday yakunlanmagan bo'lar edi. Zaynab ko'ngil bilan emas, aql bilan ish tutganda voqealar bunday tus olmagan bo'lar edi. Tashqi muhitning ta'siri Kumushga nisbatan nafratning ortib borishiga olib keldi.

Hozirgi kunda dars jarayonini jonli tarzda o'tkazish, undagi yangi mazmuni o'quvchilarga to'laroq yetkazish uchun pedagogik texnologiyalardan foydalanish zamonaviy texnologiyaning dolzarb talabi bo'lib xizmat qiladi. O'qituvchilardan ham dars samaradorligini oshiradigan, o'quvchilar faolligini kuchaytiradigan texnologiyalarni qo'llash talab etilmoqda. Bunday talablarga asosan o'quvchilarda

o‘zaro raqobatni o‘rnatish uchun adabiyot darslarida o‘yin texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Chunki, o‘yin texnologiyasi o‘quvchilar orasida faollikni yanada kuchaytiradi va mavzuga oid bo‘lgan qiziqishni yanada oshiradi. Adabiy ta’limda asosiy faollik o‘qituvchining o‘zida mujassam bo‘lishi kerak. Shundagina o‘quvchilar orasidagi faollikni ta’minlay oladi. “O‘tkan kunlar” romanida Zaynab va Kumush fojeasi tahlilini “Oqlovchi va qoralovchi” metodidan foydalanib o‘rganib chiqamiz.

“Qoralovchi va Oqlovchi” metodi



Hukmdori odil: Bugun biz “Kumushning o‘limiga Zaynab aybdormi?” sodir bo‘lgan jinoiy ishga aybdorlarini topish uchun yig‘ildik. Qoralovchi va oqlovchi tomonlar tayyormi?.

Qoralovchi: “Kumushning o‘limiga Zaynab aybdormi?” ishi bo‘yicha biz Zaynabni aybdor deb topdik.

1. Zaynab eng og‘ir jinoyatga qo‘l urdi. Kumushni zaharlab o‘ldirdi. Dahshatlisi shundaki, norasida go‘dakni ona mehridan mahrum etib, 3 oila baxtini poymol etdi.
2. Zaynab Kumushdan kuchli nafratlanar edi shuning uchun uni o‘ldirdi.
3. Otabekka bo‘lgan muhabbati tufayli Kumushni o‘ldirdi.

Oqlovchi: Hukmdori odil! Hurmatli majlis ahli, qoralovchi, Zaynabni fojianiing asosiy aybdori deb topdilar. Biroq Zaynabni bu ishga qo‘l urishida kim aybdor? Axir, uni bu ishga undagan yolg‘iz Xushro‘ybibigina emas-ku! Nahotki, Zaynabning sevgisiga va sevilishiga haqqi bo‘lmasa? Otabekning xo‘rlashlari etmagandek, O‘zbek oyim ham o‘zlari suyib olgan kelinlariga nisbatan to‘nlarini teskari kiyib oladilar. Qoralovchi Zaynabni tarbiyasizlikda aybladilar. Axir, O‘zbek oyimdek butun Toshkentni oyoqqa turg‘iza oladigan bir ayol, yakka-yu yolg‘iz o‘g‘liga tarbiyasiz bir qizni ravo ko‘rishi mumkin edimi? Zaynab ham husnda, oriyatda, odobda Kumushdan qolishmas edi. Uning yolg‘iz aybi Otabek tomonidan sevilinmagan. U bu xonadonga baxt izlab kelgan, ne-ne orzu umidlar bilan bir yostiqaqa bosh qo‘ygan edi. Biroq Otabekdek aqlli va dono yigit Zaynabdan bir og‘iz shirin so‘zini, bir daqiqalik shirin muomalasini qizg‘andi. Bechora qiz Kumushning baxtli kunlarini ko‘rib, poymanasi to‘lsa-da, sabr qilib chidadi. Biroq Zaynabning qo‘liga zaharni achchiq hayot, O‘zbek oyim, Otabek va qolaversa Kumushbibining o‘zi tutqazdi. Zaynabning aybi yo‘qligini isbotlash uchun guvohlarni chaqirishga ruxsat so‘rayman.

Guvoh chaqirtiriladi.

Oqlovchi: Siz Zaynab haqida nima deya olasiz? U qanday inson?

1-guvoh: Zaynab aybsiz Kumushning o‘limiga uning o‘zi sababchi chunki Zaynab ham ayollik baxtini his qilib yashash huquqiga ega edi.

2-guvoh: Otabek, O‘zbek oyim bechora Zaynabga eng so‘nggi chorani ko‘rishga majbur qildi, o‘zi bilmagan holda Kumushning qo‘liga zahar tutqazdi.

Navbatdagi guvoh chaqirtiriladi:

3-guvoh: Shariat qonuniga ko‘ra ikki ayoliga bir xil munosabatda bo‘lmog‘i, ikkisini ham o‘z himoyasiga olmog‘i kerak edi. Biroq Otabek bechora Zaynab qarshisida “jonsiz haykal” bo‘lib yashadi. Bir bechora qizning shodligi, dard-u hasratiga sherik bo‘la olmadi.

Hukmdori odil: Hurmatli majlis ahli “O‘tgan kunlar” ishi yuzasidan aybnomani ochiq qoldirishga qaror qildik. Shu bois, bu masalada yana ham ko‘proq mulohaza yuritasiz degan umiddamiz. Buning uchun “O‘tgan kunlar”ni qayta-qayta o‘qish zarur. Zero, moziyga qaytib ish ko‘rmoq, xayrli deydilar. Dars yakunlandi va o‘quvchilarning ishtiroki baholandi.

O‘qituvchining dars o‘tishdagi mahorati mavzuga mos metodlar va usullarni to‘g‘ri tanlay olishiga ham bog‘liqdir. Noan’anaviy darslar oddiy darslardan farq qilib, ularning o‘quvchi mustaqil fikrlashini shakllantirishda o‘rni beqiyosdir.

III BOB. Ishning amalyotga tatbiqi

3.1. Tajriba va sinov natijalari

Adabiyotning inson hayotida tutgan o‘rnini tushuntirish uchun birgina Abdulla Qahhorning “Adabiyot atomdan kuchli” deb aytgan mashhur iborasini eslash kifoya. Adabiyot - millat ko‘zgusi, adabiyot - so‘z san’ati, adabiyot - ko‘ngil oynasi.

Adabiyot o‘qitishni tashkil etish adabiy ta’lim negizida turadi. O‘quvchilarning adabiyot fanidan egallagan bilimlari ularning odob-axloqida, qadriyatlarga hurmat bilan qarashida yaqqol ko‘zga tashlanadi. U o‘quv predmeti sifatida o‘quvchilar nutqining takomilida, bolalarning kitobxonlik madaniyatining yuksalishida, kitobning to‘liq badiiy idrok etish qobiliyatining shakllanishi va rivojida beqiyos ahamiyatga ega. Adabiyot faqat pedagogik maqsadlarga xizmat qilib qolmasdan, o‘quvchilarga bilim berishi, ya’ni ko‘p asrli o‘zbek adabiyoti tarixi va hozirgi adabiy jarayondagi yetakchi ijodkorlar va ularning adabiy merosi haqida tassavvur hosil qildirishi lozim. Umumta’lim maktablari va maxsus o‘rta ta’lim maskanlarida olgan bilimlari o‘laroq o‘quvchilar adabiyot va uning tub negizini anglashi, qadimdan to shu kungacha bo‘lgan ma’naviy obidalar va yozuvchi hayoti va ijodi borasida ma’lum bilimlarga ega bo‘lmog‘i lozim.

Tajriba bilishning asosi va har qanday nazariyaning haqiqatga to‘g‘ri kelishini tajriba tasdiqlaydi. Shu ma’noda bitiruv malakaviy ishining asosiy holatlarini amaliyotda tekshirish maqsadida tajriba-sinov ishlari amalga oshirildi.

Mazkur bitiruv malakaviy ishi bo‘yicha tajriba-sinov ishlari Toshkent viloyati Yuqori Chirchiq tumani 2- umumta’lim maktabining 9-sinf o‘quvchilari hamda Nizomiy nomidagi TDPU akademik litseyining birinchi va ikkinchi bosqichda ta’lim oluvchi o‘quvchilar o‘rtasida o‘tkazildi.

Ushbu vazifalarni bajarish uchun kuzatish, suhbat va testlar o‘tkazish, tajriba – sinov, ularni tahlil qilish va umumlashtirish kabi tadqiqot metodlari qo‘llanildi.

Ma'lumki, har bir ishda tashhisning to'g'ri qo'yilishi keyingi ishlarning samaradorligini belgilaydi. Shu boisdan o'quvchilarda bilim, tasavvur va ko'nikmalar shakllanganlik darajasining dastlabki holatini aniqlashga alohida ahamiyat berildi. O'quvchilar o'rtasida ma'lum mavzular bo'yicha test sinovlari o'tkazildi. Buning natijasida, o'quvchilarning ko'pchiligida, ayniqsa, boshqa tillarga yo'naltirilgan guruhlarda o'zbek adabiyoti haqidagi bilim, ko'nikmalar yetarli darajada emasligi aniqlandi. O'quvchilarning bilimlarini aniqlashda 100 balli baholash mezonini qo'llash ko'zda tutildi, ya'ni

- 55 dan kam to'plasa, «qoniqarsiz»;
- 56 dan 70 gacha oraliqda bo'lsa, «qonqarli»;
- 71 dan 85 gacha oraliqda bo'lsa, «yaxshi»;
- 86 dan ortiq ball to'plasa, «a'lo».

Tajriba – sinov ishlari pedagogik amaliyot jarayonida o'quvchilarga adabiyot darslarini turli interfaol metodlardan foydalangan holda darslar tashkil etildi. Yetuk insoniy fazilatlari bilan barchaning qalbida ochmas iz qoldirgan Abdulla Qodiriyning asralari o'quvchilarda rostgo'ylik, haqqoniylik, samimiylik, vatanga bo'lgan cheksiz muhabbat, pok sevgi kabi go'zal hislarni hadya eta olganligi sabab qadrlidir. Bu go'zallikni bori qadar ochib berish, o'quvchi ongiga singdirish, ularning ruhiga yuqoridagi fazilatlarni singdira olishda adabiyot o'qituvchisining o'rni katta.

Abdulla Qodiriyning hayoti va ijodi umumta'lim maktablarining beshinchi, yettinchi va to'qqizinchi sinf o'quvchilari, akademik litseyda esa uchinchi kurs o'quvchilari uchun mo'ljallangan darsliklarda tegishlicha bayon qilingan. Beshinchi sinflar uchun ikki soat, yettinchi sinflar uchun uch soat, to'qqizinchi sinflar uchun sakkiz soat, uchinchi kurs akademik litsey o'quvchilari uchun uch akadem soat vaqt ajratilgan. Bu jarayon soddalikdan murakkablikka qarab o'zgarib borgan.

3.2 Ochiq dars ishlanmasi

T/r	Darsning bosqichlari	Vahti
1	Tashkiliy qism. Darsning maqsadini tushuntirish. Guruhlarga bo‘lib olish.	3 daqiqa
2	O‘tilgan mavzuni takrorlash. O‘tilgan dars yuzasidan tezkor savol-javob o‘tkazish. Mustahkamlash.	10 daqiqa
3	Yangi mavzuni bayoni. Bahs- munozara va savol javob orqali	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash. Slaydlar namoyishi Sahna ko‘rinish .	10 daqiqa
5	Baholash o‘quvchilar to‘plagan ballarni hisoblash g‘olib guruhlarini e’lon qilish.	5 daqiqa
6	Uyga vazifa. “Otabek va Kumush va Zamonamiz yoshlari” mavzusida uy inshosi yozib kelish.	2 daqiqa

Mashg‘ulotning texnologik xaritasi

Mavzu	Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani asosida “Badiiy adabiyotda milliy ruh ifodasi”
Maqsad va	“O‘tkan kunlar” romanini tahlil qilishga o‘rgatish; - o‘quvchilarni yuksak insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash, ma’naviy dunyolarini kengaytirish;

vazifalar	<ul style="list-style-type: none"> - o‘quvchilar qalbida ezgu insoniy fazilatlarni uyg‘otish; - o‘quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg‘otish, ularda mavzu asosida bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, kengaytirish; - mavzuga oid materiallarni, berilgan topshiriqlarni o‘quvchilar tomonidan yakka va guruh tarzida, slaydlar, ko‘rsatma qurollar vositasida qay darajada o‘zlashtirilganligini nazorat qilish, ularning bilimini baholash.
O‘quv material mazmuni	<p>“O‘tkan kunlar” romani “Badiiy adabiyotda milliy ruh ifodasi”, Otabek, Kumush, Zaynab, Yusufbek hoji, Mirzakarim Qutidor, O‘zbek oyim, Oftob oyim, Xasanali kabi qahramonlar tabiati va ruhiyatidagi yaxshi, ezgu sifatlar, to‘g‘rilik, mardlik, irodalilik, hamda uning aksi bo‘lgan zulm-zo‘rfvonlik, shafqatsizliklarning inson hayotiga ta’siri va natijasi.</p>
O‘quv jaryonini tashkil etish texnologiyasi	<p>Shakl: interfaol mashg‘ulot: suhbat-ma’ruza, yakka va guruhlarda ishlash.</p> <p>Metod: “Kichik guruhlarda ishlash”, matn bilan ishlash, savol-javob, fikr almashuvi.</p> <p>Vosita: darslik, slaydlar, , kartochkalar, videoproektor.</p> <p>Usul: ifodali o‘qish, bahs-munozara.</p> <p>Nazorat: kuzatish, nazorat savollari, nazorat mashqlari.</p> <p>Baholash: rag‘batlantirish, o‘z-o‘zini baholash, ball tizimi.</p>
Kutiladigan natijalar	<p>O‘qituvchi: Mavzuni qisqa vaqt ichida barcha o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishiga erishadi O‘quvchilar faolligini oshiradi. O‘quvchilarda fanga nisbatan qiziqish uyg‘otadi. O‘quvchilar tomonidan mavzuni mustaqil o‘rganish va uni xotirada saqlashga, boshqalarga yetkazish, savol berish va</p>

	<p>savollarga javob berishga o'rgatadi.</p> <p>O'quvchi: Yangi bilimlarni egallaydi. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani asosida o'quvchida milliy urf odatlarni qadrlashga, ezgulik, iroda, jasorat kabi ahloqiy fazilatlar shakllanadi, ma'naviy barkamollik tushunchasi kengayadi.</p>
Kelgusi rejalar	<p>O'qituvchi: Navbatdagi suhbat uchun mashg'ulot materiallarini qaytadan ko'rib chiqish, mashg'ulotni tahlil qilish, mavzuni qo'shimcha ma'lumotlar bilan boyitish, mashg'ulot metodikasi va texnikasiga o'zgartirish kiritish, pedagogik texnologiya usullarini darsda tatbiq etishni takomillashtirish, pedagogik mahoratini oshirish, keyingi mashg'ulotni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish.</p> <p>O'quvchiga talab: "O'tkan kunlar" romanini bir marotaba o'qib, asar mazmuni yuzasidan taassurot yozish.</p>

Fan: Adabiyot

Dars mavzusi: Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani asosida "Badiiy adabiyotda milliy ruh ifodasi".

Darsning maqsadi:

- a) **Ta'limiy maqsad:** O'quvchilar ongiga milliy ruh to'g'risidagi nazariy ma'lumotlarni singdirish.
- b) **Tarbiyaviy maqsad:** Ajdodlarimizdan meros qolgan milliy qadriyatlarni ulug'lashga undash.
- d) **Rivojlantiruvchi maqsad:** o'quvchilarni bilim va tafakkuriuni o'stirish, turli nutq vaziyatlarida o'z nutqini erkin bayon eta olish malakasini rivojlantirish.

Darsning metodi: "Aqliy hujum", "Venn diagrammasi", "Chalkash ma'lumotlar", "Bahs- munozara".

Darsning jihozi: Kompyuter, slaydlar, adib rasmlari, “O‘tkan kunlar” romani, romanidan rasmlar lavhalar, audio MP3, rag‘bat kartochkalar.

Fanlar aro bog‘lanish: Tarix, geografiya, etnografiya, Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari. **Darsning borishi Tashkiliy qism:**

1. Salomlashish;
2. Davomat aniqlash;
3. Yil nomlanishini so‘rash;
4. G‘azalxonlik o‘tkazish;

Darsning shiori: Ozod yurtning istiqbolli yoshlariga omad yor bo‘lsin!

O‘qituvchi o‘quvchilardan ingliz tilida davomatni aniqladilar

-Who is on duty today?

-I am on duty today.

-What was called 2016 year by our president I.Karimov?

Ingliz tilida yil nomlanishi so‘raladi.

-The 2016 year is “Healthy mother and child”

O‘qituvchi: Biz 9-sinf adabiyot dasrligidan bir qancha mumtoz adabiyot vakillarini g‘azallaridan bahramand bo‘ldik . Keling o‘quvchilar hozir yod olgan g‘azallarimizdan g‘azalxonlik o‘tkazamiz. Sinf o‘quvchilarini avvalo ikki guruhga bo‘lib olamiz

1-guruh **“Ziyo nurlari”**

2-guruh **“Sharq yog‘dusi”:**

Har bir guruh navbat bilan g‘azal aytishadi.

“Ziyo nurlari“ guruhi

O‘n sakkiz ming olam oshibi agar boshimdadur,

Ne ajab, chun sarvinozim o‘n sakkiz yoshimdadur.

(Alisher Navoiy)

“Sharq yog‘dusi” guruhi

Jonimdin o‘zga yoru vafador topmadim

Ko'nglumdin o'zga mahrami asror topmadim

(Z.M.

Bobur)

Darsimizni ushbu slayd namoyishi bilan davom ettiramiz. Prezidentimiz Islom Karimov Abdulla Qodiriy bobomiz haqida quyidagi fikrlar bildirganlar “YURTIMIZDA ABDULLA QODIRIY ASARLARI KIRIB BORMAGAN BIRORTA HAM XONADON BO‘LMASA KERAK. U FAQAT O‘ZBEKLARNING EMAS BALKI TURKISTON XALQLARINING HAM SEVIMLI ADIBI, OZODLIK VA ISTIQLOL KUYCHISIDIR.

O‘tilgan mavzuni o‘quvchilarga “Raqamlar tilga kirganda” metodidan foydalanamiz. Doskada raqamalar yozilgan plakat mavjud har bir guruhdan ishtirokchilar shu raqamlarni tanlashadi va javob berishadi

“Ziyo nurlari” guruhi

1894-yil 10-aprel

Ushbu yilda ulug‘ adibimiz tavallud topganlar

1912-yil

Abdulla Qodiriy rus tuzem maktabini tugatib, Rasulmuhammadboy ismli savdogar qo‘lida ishboshqaruvchilik qiladi

1914-yil 1-aprel

Abdulla Qodiriyning birinchi maqolasi “Sadoiy Turkiston” gazetasida e‘lon qilindi.

1924-1925-yillar

Moskvadagi oliy jurnalistika institutida tahsil oladi.

“Sharq yog‘dusi” guruhiga beriladigan raqamlar

1915-yil

Abdulla Qodiriy bu yil “Juvonboz” hikoyasi va “Baxtsiz kuyov” daramalarini yozadi.

1926-yil

Adibimiz “sho‘ro rahbariyatini matbuot orqali obro‘sizlantirdi” degan tuhmat bilan sudlanadi.

1937-yil

Qodiriy ikkinchi maratoba qamoqqa olinadi

1938-yil

To‘qqiz oylik qiynoq va xo‘rliklardan so‘ng adib qatl ettiriladi.

O‘qituvchi: Qani o‘quvchilar Abdulla Qodiriyning qanday asarlarini bilasiz?

O‘quvchi: Abdulla Qodiriy 1919-1925-yillar 300 ga yaqin maqolalar yozgan.

O‘quvchi: “Kalvak mahzunning xotira daftaridan”, “Toshpo‘lot tajang nima deydur”?

O‘quvchi: Yozuvchining yirik romanlaridan biri “O‘tkan kunlar “ va “Mehrobdan chayon“ romanlari

Slayd orqali “O‘tkan kunlar” romani namoyish etiladi

O‘quvchi: Abdulla Qodiriyning ijodining ajoyib namunasi , bebaho gultoji “O‘tkan kunlar” romani bo‘lib, u o‘zbek adabiyotining dastlabki romandir.

Adib mazkur roman orqali xalqning milliy ongini uyg‘otmoqchi bo‘ldi, “Tariximizning eng kir, qora” kunlari yurtni mustamlaka balosiga giriftor qilgan keyingi xon zamonlari XIX asr o‘rtalaridagi mudhish tarixiy jarayonlar haqida so‘z ochib, bu ayanchli haqiqatdan xalqqa saboq bermoqchi bo‘ldi.

O‘tilgan mavzuni mustahkamlash uchun quyidagi aqliy hujum metodidan foydalanamiz

“Ziyo nurlari” guruhiga tezkorlik savollari

1. “O‘tkan kunlar” romani nechanchi yilda yozilgan?
2. “O‘tkan kunlar” romani asosiy qahramonlarini ayting
3. “O‘tkan kunlar” romani qaysi shaharlarda yuz bergan?
4. Romandagi asosiy tarixiy shaxslar
5. Kumush obraziga ta’rif bering.

“Sharq yog‘dusi” guruhiga tezkorlik savollari

1. “O‘tkan kunlar” romani dastlab jurnalda yoki gazetda bosilib chiqqanmi?
2. Otabek nechta odam o‘ldirgan?
3. Marg‘ilonda Kumushni yana kim yaxshi ko‘rar edi?
4. Hasanali Otabekni nega uylantirdi?
5. Ota -ona orzusi haqida ayting.

III. Yangi mavzu bayoni: Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani asosida “Badiiy adabiyotda milliy ruh ifodasi”.

Mavzuni yoritishdan avval kompyuterdan foydalanib, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani asosida suratga olingan kinofilmdan to‘y sahnasini namoyish etamiz .

O‘quvchilar bilan filmdan lavha tomosha qildik . Endi “Bahs-munozara” metodidan foydalanib o‘quvchilarni bahsga chorlaymiz. Guruhlarga savol bilan murojaat etamiz har bir guruh o‘z fikrini bayon etadi.

Romandagi milliylik ifodasi aks etgan tasvirlarni ayting

“Ziyo nurlari” guruhi

“O‘tkan kunlar” romanida milliy ruh juda bo‘rtiq aks etganligi bilan ajralib turadi. Otabekning ota-onasi bilan Qutidor va Oftoboyimlarni qudalar hamda kuyovlari bilan munosabatlari tasvirlangan o‘rinlarida faqat o‘zbekkagina xos fikrlash va ta’sirlanish yo‘sini juda go‘zal ko‘rsatilgan

“Sharq yog‘dusi” guruhi

Milliylik bu tashqi belgi emas. U ichki holatdir. Biror millatning vakili o‘zining qaysi millatga mansubligini bilsa va shu bilan faxrlansa, unda millat tuyg‘usi shakllangan bo‘ladi. Millatni tanimaslik va u bilan faxrlanmaslik ulkan baxtsizlikdir.

“Ziyo nurlari” guruhi o‘z fikrlari bilan davom etadi

“Qayin ota va qayin onalaringga xizmat qil, yaxshilikni qo‘lingdan berma ayniqsa kundoshingga yomonlig‘ni sog‘inma.....” Oftoboyimning qizi Kumushga qilgan ushbu nasihatlarini nafaqat o‘sha davr balki hozirgi kun uchun ham asqotadi. Oftoboyimni bu so‘zlari o‘zbek onalarimizni qizlariga beradigan go‘zal sharqona tarbiyasida aks etadi.

“Bahs munozara” mizni **“Sharq yog‘dusi”** guruhi davom ettiradi

Bu romanda ibo, hayo birinchi o‘rinda turibdi. Kumushning ota - onasiga bo‘lgan munosabati. Yana Otabek ota - onasini ko‘nglini og‘ritmasligi. Sharqona mehmondo‘stlik va bolajon xalqligi ko‘rinib turibdi

O‘qituvchi: Shu o‘rinda o‘zbek xalqi mehmondo‘st va bolajon xalq deb to‘g‘ri mulohaza yuritdingiz. Albatta, “O‘tkan kunlar” romanida xalqimizga xos mehmondo‘stlik tuyg‘usi mohirona aks ettirilgan

O‘quvchilar tomonidan sahna ko‘rinish namoyish etiladi.

Qudalarni kutib olish . Marg‘ilonlik kelin Kumushoyni Toshkentga kelishi

Yusufbek hoji “Bizning Marg‘ilonda shunaday kelinimiz bor ekan biz bilamay yurgan ekanmizda”

O‘quvchilar asardan olingan parchani namoyish etishdi. Rahmat

O‘qituvchi: Siz “Venn diagrammasi” orqali o‘z fikr mulohazalaringizni bayon qilasiz.

Slayd namoyish etiladi.

Slayd orqali guruhlar fikr mulohazalar bildirashadi.

Keyingi slaydimizga Kumush obrazi aks etib turibdi. Ushbu rolni ijro etgan aktrisaning ayting?

Javob: Ushbu rolni ijro etgan aktrisa Gulchehra Jamilovadir.

O‘qituvchi: Diqqat savol

Xasanali va Otabekning munosabatlarini ayting.

“Ziyo nurlari” guruhi

O‘quvchi: Otabek Hasanali uchun o‘gildek. Xasanali juda uddaburon tadbirkor , mulohazali insondir. Otabek ham unga xizmatkordek muomala qilmaydi.

“ Sharq yog‘dusi” guruhi

Hasanali sadoqatli, aqlli, g‘amxo‘r, vijdoni pok, mehribon umuman yaxshi fazilatlarini o‘zida mujassamlantirgan kishi obrazida hurmatga sazovor shaxs.

O‘qituvchi: Zaynab obrazi siz uchun qanday obraz?

“Ziyo nurlari” guruhi

Zaynab ham dunyoga bir marta keladi. U ham sevish va sevilishni orzu qiladi. Zaynab og‘ir tabiatli qiz . U o ‘z fikriga ega emas . Ko‘nglida g‘arazgo‘yligi bor opasi Xushro‘yni so‘zlariga ishonadi va qilmishidan juda pushaymon bo‘ladi.

Xushro‘ybibi kim?

Muallif, ijobiy obrazlargina emas, Homid, Jannat kampir, Musulmonqul , Azizbek, Sodiq va Xushro ‘ybibi obrazini yaratdi.Kumushbibini vafodorlik,go‘zallik va samimiylik ramzi bo‘lsa, Xushro‘ybibi ichi qoralik va shumlik, battollik va yomonlik, behayolik, urushqoqlik, o‘jarlik va xudbinlik timsolidir.

Yangi mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

- 1.Bugun ota -ona va farzand munosabati qay darajada deb o‘ylaysiz?
- 2.Yoshlar va tengdoshlar o‘rtasidagi muomala sizga yoqadimi?
- 3.Hozirgi vaqtda Ona va qiz, Kelin va qaynona o‘rtasida rishtalar arzigulik holatdami?
- 4.Milliy liboslarimiz nima uchun butun dunyoda e‘zozlanadi.

Baholash:

Har bir guruhning ballari aniqlanadi va e‘lon qilinadi;

G‘olib guruh va darsda aktiv qatnashgan o‘quvchilarga o‘qituvchining estalik sovg‘alari ulashiladi.

Uyga vazifa:

“Otabek va Kumush” mening tasavvurimda mavzusida uy inshosi yozib kelish

XULOSA

“Ta’lim to’g’risida”gi Qonun hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” talablari asosida ta’lim tizimimizda jiddiy yangilanishlar amalga oshmoqda. Shunday ekan, bu darslarni samarali, ilg’or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilish o’qituvchidan katta ma’suliyatni talab qiladi. Shularni hisobga olgan holda, ushbu malakaviy ishimizda adabiyot darslarida interfaol metodlardan foydalanishning samarasi, pedagogik texnologiyaning o’ziga xos jihatlarini ochib berishga harakat qildik. Abdulla Qodiriyning hayoti va ijodi uning asarlari adabiyotshunosligimizda turli nuqtayi nazardan o’rganilgan. O’zbek adabiyotida Abdulla Qodiriy haqida juda ko’p ilmiy ishlar olib borilgan bo’lsa-da, metodika sohasida yetarli tadqiqot olib borilmaganligi sababli biz o’z bitiruv malakaviy ishimizda mana shu jihatlarni yoritib berishga harakat qildik.

Ishning dastlabki bobi “Abdulla Qodiriy ijodini o’rganishda innovatsion texnologiyalarning samarasi” deb nomlangan bo’lib, bobning birinchi qismida Abdulla Qodiriy hayoti va ijodining o’zbek adabiyotshunosligida turli nuqtayi nazardan o’rganilishi haqida so’z boradi. Shuningdek, Ayni shu qismda dars samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi metodlar “Bahs-munozara”, “Debat” kabi metodlardan foydalanildi. Bobning ikkinchi qismida asardagi tarixiy shaxslar haqida ma’lumot berilib o’tilgan.

II bob “Asar tahlilida interfaol metodlardan foydalanish usullari”. BMI ning asosini tashkil etuvchi ushbu bobda Abdulla Qodiriy “O’tkan kunlar” romanini o’qitishning interfaol usullari ishlab chiqildi. Mazkur bobda “Qarorlar shajarasi”, “Yelpig’ich”, “Davra suhbat”, “Ikki tomonlama kundalik”, “Keys-stadi”, “Oqlovchi va Qoralovchi”, metodlardan foydalanilgan. Bu interfaol usullar umumta’lim maktablari, akademik-litsey va darsliklarida berilgan materiallar va qo’shimcha materiallardan foydalanish asosida ishlab chiqildi.

Bitiruv malakaviy ishining uchinchi bobida umumta'lim maktablari, akademik-litseyning, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan dastur va darsliklar tahliliy o'rganildi. Ishimizning birinchi va ikkinchi bobda keltirilgan fikrlarning amaliyotga tatbiqi va buning natijalari berilgan. Bitiruv malakaviy ishining asosiy holatlarini amaliyotda tekshirish maqsadida tajriba-sinov ishlari amalga oshirildi. Bu bobda Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanini "muammoli dars" usuli orqali o'quvchilarga o'rgatish kuzatildi. Tajriba-sinov ishlari natijasi adabiyot darslarini tashkil etishda interaktiv metodlardan foydalanishning samaradorligini amaldagi dars jarayonlarida ko'rsatib berildi.

Asosan o'quv dasturlarida Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanini o'qitishga ajratilgan nazariy va amaliy o'quv saotlari ko'rib chiqildi, munosabat bildirildi. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani bo'yicha ochiq dars ishlanmasi ishlab chiqilib, pedagogik amaliyot jarayonida Nizomiy nomidagi TDPU Akademik litseyning I va II bosqich o'quvchilari bilan amalga oshirildi

Umuman olganda, Abdulla Qodiriyning barcha asarlari o'quvchilarni samimiylilik, odamiylilik xislatlarini mujassamlashtirishga o'rgatadi. Shuningdek, vatanga bo'lgan muhabbat tuyg'usini kuchaytiradi, dunyoqarashini kengaytiradi. Uning asarlarini yuqorida tavsiya etilgan interaktiv metodlar yordamida o'rganilganda yanada yuqori natijalarga erishish mumkin.

O'zbekcha – inglizcha so'zlar lug'ati

1. Dars – lesson
2. Darslik – textbook
3. Bilim – knowledge
4. Yozuvchi – writer
5. Adib – writer, manotlatters
6. Hayot – life
7. Ijod – creative work
8. Faoliyat – activity
9. Asar – work, crack
- 10.Parcha –passage
- 11.Namuna –standard
- 12.Haqida –about
- 13.Mavzu –theme
- 14.Mustaqil – independent
- 15.Biografik – biographical
- 16.Manaviy – spiritual
- 17.Yo'l – road
- 18.Umumiy – general
- 19.O'rta – secondary
- 20.Ta'lim – education
- 21.Maktab – school
- 22.Tarjima – translate
- 23.Texnologiya – technology
- 24.O'quvchi – pupil
- 25.Xulosa – summary
- 26.Malumotlar – information's

27. Maqola – story
28. Umr – life
29. Kitobxon – reader
30. Roman – novel
31. Litsey – lyceum
32. Foydalanish – advantage
33. Bayramlar – holiday
34. Metod- method
35. Manba- source
36. Ilgʻor- advance-guard
37. Adabiyot- literature
38. Adabiyotshunos- specialist in literature
39. Badiiy- artistic
40. Mazmun- logical
41. Yuksak – elevated
42. Tajriba – experiment

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Каримов И. А. Адабиетга эътибор - маънавиятга, келажакка эътибор. -Т.: Ўзбекистон. 2009.
2. Каримов И. А. Маънавий юксалиш йулида. -Т.: Ўзбекистон. 1998.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. –Т.: Ma'naviyat. 2008.
4. Karimov I.A. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –Т., 1998.
5. Abdulla Qodiriy “O'tgan kunlar”. -Т.: Sharq, 2016. –
6. Абдулла Қодирий абадияти (мақолалар тўплами). -Т.: “Mumtoz so'z”, - 2014.
7. Abdulla Qodiriy, Ro'monlar. O'tgan kunlar Mehrobdan chayon. -Т.: G'. G'ulom nomidagi nashryot-matbaa birlashmasi, 1992, 11-bet.
8. Akbarov H. Kino teledrammaturgiya nazariya va amalyoti. -Т.: “Ilm ziyo”, - 2006.
9. Audiovizual kommunikatsiya estetik paradigmalar tuzulishida “Ilmiy maqolalar to'plami” -Т.: 2014.
10. Эшонбобоева Ш. «Ўтган кунлар»нинг икки талкини. Санъат, 2006, 14-сон
11. Журакулов У. Назарий поэтика масалалари. -Т.: Фафур Фулом номидаги наширет-матба ижодий уйи, 2015.
12. Каримов Б. Абдулла Қодирий ва герменевтик тафаккур илмий монография. -Т.: Akademnashr, 2014.
13. Каримов Б. Абдулла Қодирий тақид, таҳлил ва талкин. -Т.: Фан, 2006.
14. Каримов Б. Қодирий кадри. -Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашириети, 2003.
15. Лутфиддинова Х. Қумушбиби – эстетик идеал намунаси. Ўзбек тили ва адабиети, 1994, 4-5-6 сонлар.
16. Норматов У. “Ўтган кунлар” ҳайрати. -Т.: Ўқитувчи, 1996.
17. Niyozmetova R. H. Uzluksiz ta'lim tizimida o'zbek adabiyotini o'rganish. Т.: Fan. 2007.

18. Qarshiboyev M. Bir ishq, ham chin bir ishq. “Vatan” gazetasi, 1992, 28-oktyabr.
19. Qodiriy A. “O‘tgan kunlar” -T.: Sharq, 2016, (Turli sahifalar)
20. Qozoqboy Yo‘ldoshev, Begali Qosimov, Valijon Qodirov. Adabiyot. 7-sinf uchun darslik-majmua. Toshkent. Sharq. 2013.
21. Qozoqboy Yo‘ldosh, Muhayyo Yo‘ldosh. Badiiy tahlil asoslar. T.: Kamalak. 2016.
22. Rafiyev A. G‘ulomova N. Ona tili va adabiyot. Kasb-hunar kollejlari uchun darslik. T.: Sharq. 2013.
23. Соатов Н. И. Абдулла Қодирийнинг “Ўтган кунлар” романида эпик тасвир анъаналар // Номзодлик дис. -Т.: 2001
24. Hoshimov M. M. Adabiyotshunoslik asoslari (ma’ruzalar matni). -Qo‘qon, 2007
25. Шмелев Д. Н. Слово и образ. М.: Нау23. Норматов У. “Ўтган кунлар” хайрати. -Т.: Ўқитувчи, 1996.
26. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. T.: Yangi asr avlodi. 2006.
27. To‘xliyev B, Abdurahmonova B. Adabiyot. Majmua. Akademik litseylarning birinchi bosqich o‘quvchilari uchun. T.: Bayoz. 2014.

Elektron ta’lim resurslari:

28. www.ziyonet.uz
29. www.google.uz
30. www.pedagog.uz
31. www.istedod.uz
32. [www. Bimm. Uz](http://www.Bimm.Uz)
33. [www. Ziyonet. Uz.](http://www.Ziyonet.Uz)
34. www.edu.uz
35. [Htt://www.ziyouz. Uz](http://www.ziyouz.Uz)
36. [Htt://uzedu.uz](http://uzedu.uz)
37. [Htt:// www. Kitob. Uz.](http://www.Kitob.Uz)